



UDK: 37(575.1)

Doston AKRAMOV,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: dostonakramov7777@gmail.com

O'zMU professori, t.f.d (DSc) A.Ermetov taqrizi asosida

### TEACHER TRAINING SYSTEM DURING SOVIET RULE

Abstract

The reforms in the field of education carried out by the Soviets, the recruitment and training of teachers in schools in the territory of Uzbekistan, and their consequences and results for the Uzbek people were mentioned.

**Key words:** Education, Course, inpros, cadre, club, conference, congress, convention, academy.

### СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ

Аннотация

Были упомянуты реформы в области образования, проведенные Советами, набор и подготовка учителей в школы на территории Узбекистана, их последствия и результаты для узбекского народа.

**Ключевые слова:** Образование, курс, инпрос, кадры, клуб, конференция, съезд, съезд, академия.

### SOVIET BOSHQARUVI DAVRIDA O'QITUVCHILAR TAYYORLASH TIZIMI

Annotatsiya

Sovetlar olib borgan maorif sohasidagi islohotlari, O'zbekiston hududida maktablarda o'qituvchilarni tortish va o'qituvchilar tayyorlash hamda uning o'zbek xalqiga ko'rsatgan oqibatlarini va natijalari tilga olingan.

**Kalit so'zlar:** Maorif, kurs, inpros, kadr, krujok, konferensiya, syezd, qurultoy, akademiya.

**Kirish.** Davlat taraqqiyotida va jamiyat rivojida o'qituvchilar dolzarb o'ringa ega. Ularni xizmatlashtirish xalq maorifini tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovet maktablari ehtiyojlariga tobora ko'proq mablag' ajratilganligi ayniqsa O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishidan keyin hamda mamlakatimizda xalq xo'jaligini taraqqiy qildirish birinchi besh yillik rejasini amalga oshirish davrlarida ayniqsa yaqqol ko'rindi. Turkiston o'lkasining oldida yangi o'qituvchi kadrlar tayyorlash vazifasi turgan edi. Inqilobdan keyin ham davom etgan eski maktablarning o'qituvchilari na o'zlarining bilimlari jihatidan va na dunyoqarashlari jihatidan zamon talabiga, qolaversa, xalq maorifi sohasidagi islohotlarga qo'ygan vazifalarni hal qilishga qodir emas edilar. Eski o'qituvchilar orasida panisломistlar, panturkistlar, millatchilar yoki ularning ta'siri ostida bo'lgan kishilar bor edi. O'qituvchi kadrlar masalasi maktab qurilishining asosiy masalasi bo'lib qoldi, chunki malakali o'qituvchilar bo'lmasa, maktab qurilishi ishlarini muvaffaqiyat bilan hal qilib bo'lmas, yangi maktab qurib bo'lmas edi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nigora Sharopova, Oybek Komilov, Nargiza Sharipova, Ahmad Cheriyeu, O'ktamjon Abdullayev, Nargiza Ismatova kabi tadqiqotchilar so'nggi yillarda o'zlarining ilmiy ishlarini mustaqillik tarixshunosligi bilan davom ettirib, sovet mafkurasi adabiyotlardan farqli ravishda xolisona, tarixiylik va xronologik tamoyillarda maorif sohasining taraqqiyotini ko'rsatib berishgan. Ahmad Cheriyeu "Mustabid sho'rolar tuzumi sharoitida O'zbekiston xalq ta'limi va o'qituvchi kadrlar tayyorlash: milliy – an'anaviy va sho'ro ta'lim tizimlari o'rtasidagi ziddiyatlar (20-30 yillar)" nomli ilmiy ishida mustabid hukumatning mafkuraviy harakatlari natijasida o'zbeklarning ma'naviy halokati tasvirlab berilgan. 1918 yil iyunda internatsionalist-o'qituvchilar Butunrossiya syezdida ishtirok etdi. Syezd Sovet davlatining siyosati va xalqning inqilobiy kurashi sohasida o'qituvchilar oldida turgan vazifalarni ko'rsatib berdi. O'qituvchilar o'zlarining faqat o'qituvchilik ishlari doirasidagina cheklanib qolmay,

balki kurashayotgan mehnatkashlar ommasi bilan birga qo'shilib, xalq maorifining asosiy armiyasi bo'lmoqlari kerak edi. Ammo Turkiston o'lkasida o'qituvchilar tayyorlash sohasida alohida qiyinchiliklar tug'ildi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** 1919-yil savodsizlikni tugatish haqida qaror qabul qilingach, o'qituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu bois, 1921-yil 850 ta o'qituvchilik kursi ochilgan. Yettita maorif institut tashkil etilgan va 1145 ta talaba o'qigan[2]. 1929-yil O'zbekiston bo'yab qator okruglarda bir oylik kurslar tashkil etildi va kurslarda asosan ikki predmet alohida e'tibor berilib o'qitildi:

- individual- guruxlab o'qitish;
- lotin orfoografiyasi

Bu orqali mavjud an'anaviy arab tilidagi ongni yangicha universal lotin tiliga o'tish va shu zayilda yangi dunyoqarashga ega o'qituvchilarni shakllantirish hamda ko'paytirish edi. Ommaviy suratda sovet o'qituvchilari tayyorlash maqsadida juda ko'p kurslar ochildi, bu kurslarda minglab o'qituvchilar o'qib chiqdi. Kurslar yo'li bilan o'qituvchilar tayyorlash O'zbekistonda vaqti-vaqti bilan takrorlanib turdi va faqat 1944 yildagina batamom tugatildi.

1921-1922 o'quv yilidan boshlab Buxoro shahrida birinchi dorulmuallimin (o'qituvchilar bilim yurti) ochilgan. Dorulmualliminda o'qish muddati 2 yillik bo'lib, "ahzori" - sirtqi bo'lim ham mavjud edi. Dorulmuallimin tayyorlov bo'limiga qabul qilinadigan o'quvchi-talabalar yoshi 15 dan kam, 22 yoshdan katta bo'lmasligi shart qilib qo'yilgan. "Dorulmualliminning ochilishi ilm va maorif yo'lida birinchi odimdir. Buxoroning istiqboli va saodati uchun dorulmualliminning yashamog'i lozimdur. Bunga hukumat ahamiyat berib, buning yashamog'ini ta'min etish kerakdur", - deb yoziladi "Buxoro axbori" gazetasida. Dorulmualliminda tahsil olish uchun BXRning 10 ta viloyatidan yoshlar to'plangan. 1921-1922 o'quv yilida Yangi Chorjo'y shahrida ikkinchi dorulmuallimin ham ish boshlaydi. "Yangi Chorjo'yda sobiq amir hukumati tarafidan soling'on "Nikolay" gimnaziyasi (Rossiya podshosi Nikolay II nomi

bilan atalg'on) o'quv yurti binosida o'tgan sana (1921 yil) dorulmuallimin ish boshlag'on edi. Bunga maorif nazorati tomonidan "Fayzullo Xo'ja" ismi berilib, ochilish marosimida hukumat boshliqlari qatnashdi", - deyiladi xabarlarda. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida umumta'lim maktablari, xotin-qizlar maktabi hamda dorulmuallimlarda imtihon olish tartibi, imtihondan o'tgan o'quvchi va talabalarni rag'batlantirish bilan bog'liq maqola va xabarlar ham talaygina. Imtihonlar respublika viloyatlarida odatda 15 iyundan keyin qabul qilingan. Xat-savod kurslarida may oyining birinchi o'n kunligida imtihon olinib, kurslarni bitirganlarga guvohnoma berilgan. Gazetalaridagi imtihonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, umumta'lim maktablari sinfdan-sinfga o'tkazish payti hamda dorulmuallimlarda bitirish imtihonlarini topshira olmaganlar qayta o'qish uchun yuborilgan. Imtihonlarda ishtirok qilish uchun ota-onalar ham taklif qilingan. Imtihonlardan muvaffaqiyatli, yuqori baho bilan o'tgan o'quvchi va talabalar taqdirlangan. O'quv muassasalarini pedagog mutaxassislar bilan ta'minlash muammosi hamda turli kategoriyadagi o'qituvchilarning moddiy ahvoli, ularning saviyasi zamon talablariga javob berishi darajasi bilan bog'liq xabarlarni gazetalarda keltirilishi ham ahamiyatga egadir. Bir qator maqola va xabarlar o'qituvchilar moddiy sharoiti bilan bog'liq ayanchli ma'lumotlarni keltiradi. Bunday kamchiliklar, avvalo, o'qituvchilar dars berayotgan binolar talabga mutlaqo javob bermasligi, ularni tegishli ko'rgazmali qurollar, o'quv asboblari bilan ta'minlanmaganligi, maktab va maorif muassasalari ayrim sobiq amir davri amaldorlarining uylarida joylashganligi, ya'ni torligi, ikkinchidan, o'qituvchilarga to'lanadigan maoshlarning oz miqdordaligi bilan bog'liqdir[3].

O'zbekiston SSR Xalq komissarlari Soveti va O'zbekiston KBP Markaziy komiteti 1938-yil 15-avgustgacha barcha maktab qurilish ishlari reja asosida qurilish materiallari etkazish va qurilishiga yordam berish uchun kerakli chora-tadbirlar amalga oshirsin, viloyat binokorlik trestlari ishlari tashkil etish va maktab qurilishini tezlashtirish uchun O'zbekiston SSR Xalq komissarlari Soveti va O'zbekiston KBP Markaziy komiteti vakillari xizmat safarlariga Toshkent viloyatiga Vladimirov, Farg'ona viloyatiga Kisanov, Samarqand viloyatiga Filimonov, Buxoro viloyatiga Petrenko, Xorazm viloyati Marsakov yuborishga qaror qabul qilindi. O'zbekiston SSR Gosplani raisi Kokulenko shu yil 2 kvartalda maktab binokorliklarini tashkil etish uchun zarur materiallari(sement, temir, mix, surup va elektr uskunali) uzluksiz ta'minlash, Toshkent temir yo'l boshlig'i Uxtomiskiga O'zbekiston SSR Maorif Xalq komissarligining telegramiga muvofiq, 160 vagon ohak, 360 vagon pishiq g'isht kabi materiallar tashib borish taklif etildi [4].

Qishloq maktablari o'qituvchilari malakasini oshirishning asosiy shakli yoz faslidagi qisqa kurslar bo'lib qolgan edi. Ammo bu kurslar o'qituvchilar malakasini oshirishda dastlabki bosqich bo'lib, o'qituvchilarning bu kurslarda olgan bilimlarini o'zlari mustaqil suratda o'qib, chuqurlashtirishlari lozim edi. Bu kurslar o'qituvchilarga pedagoglik san'atini o'rganib olishda yordam berish bilan birga, ularni mustaqil suratda o'qib, bilim olish metodlari bilan ham tanishtirdi, yangi maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini ongli suratda o'qib olishda ham ularga katta yordam berdi. Masalan, guruh o'qituvchilari tayyorlash uchun Libknext nomidagi maktab shaharchasi qoshidagi kursda konferensiya-seminariyalar o'tkazilgan edi. Durust, joylardan kelgan kishilarning malakasi uncha yuqori bo'lmaganligi va konferensiyalarning muddati ham qisqa bo'lganligi sababli, bunday konferensiya-seminariyalar katta natija bera olmadi. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, kursning o'zida tajribali lektorlar hamda yangi sovet maktabi programmasi masalalari

yuzasidan rahbarlik qila oladigan ixtisosli kadrlar etishmas edi. Kursni tamom qilgan o'qituvchilardan faqat 1% ininggina boshlang'ich maktab hajmidan sal yuqoriroq ma'lumoti bor edi. 25%i esa eski tipdagi boshlang'ich maktablarni tamom qilgan kishilar edi, qolganlari esa uylarida o'zlaricha o'qib bilim olgan kishilar yoki ko'p deganda, o'qituvchilar tayyorlash qisqa muddatli kurslarida o'qib chiqqan kishilar edi. Bu hol ommaviy o'qituvchilarni, ayniqsa qishloq o'qituvchilarini qayta tayyorlash shaklini o'zgartirishga majbur qildi.

1918 yilning 21 aprelida Toshkentda ochilgan Turkiston xalq universiteti O'zbekistonda xalq maorifining taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. (inqilobgacha Turkistonda birorta ham oliy o'quv yurti yo'q edi.) Dastlabki vaqtlarda xalq universiteti tuzilish jihatidan juda ko'p tarmoqli edi: uning tarkibiga 50 dan ortiq o'qartuv muassasalari, elektromontyorlar kursidan tortib to konservatoriyagacha turli xil o'qartuv muassasalari kirgan edi. 1918 yilning kuzida xalq maorifining hamma muassasalari Turkiston respublikasi Maorif Xalq Komissarligiga o'tgandan keyin, universitet tarkibida 5 ta fakultet: 1) adabiyot va falsafa, 2) ijtimoiy fanlar, 3) tabiiyot va matematika, 4) qishloq xo'jaligi hamda 5) texnika fakultetlari qoldi. Sovet hukumati universitetni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashda va universitet uchun o'quv-moddiy baza yaratishda juda katta yordam ko'rsatdi. Universitetda doimiy ishlash uchun, O'rta Osiyoni yaxshi biladigan mashhur rus olimlaridan: professor V. I. Romanovskiy, P. N. Cherdansev, N. A. Dimo, N. P. Lappo-Danilevskiy, R. R. Shreder va boshqalar taklif qilindi.

1919 yilning noyabrda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Komitetining Turkiston Komissiyasi Toshkentga keldi, V. V. Kuybishev va M. V. Frunze boshchiligidagi bu Komissiya Moskvadan Turkistonga professor-o'qituvchilarning tez (1920 yil boshlarida) kelishlariga, shuningdek, juda ko'p miqdorda o'quv qurollari, kitoblar, o'quv va laboratoriya jihozlari va boshqa asbob-jihozlarning tez olib kelinishiga yordam berdi. 1920 yilning 7 sentyabrda V. I. Lenin Toshkent shahrida Davlat universiteti ochish to'g'risidagi RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining tarixiy dekretiga qo'l qo'ydi. Bu universitet Turkiston respublikasining xalq xo'jaligi va maktablari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan birdan-bir oliy o'quv yurti edi. 1918 - 1919 o'quv yilida Turkiston o'lkasining bir qancha shaharlarida pedagogika o'quv yurtlari barpo qilindi. 1920 yilda yangi tip pedagogika o'quv yurtlari - xalq maorifi institutlari - inproslar ochildi. Inproslarni bitirib chiqqan o'quvchilar ikkinchi bosqich maktablarga o'qituvchi qilib yuborildi, ulardan ko'plari mahalliy va markaziy oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirdi. Inproslarda ishlashga eng yaxshi pedagoglarni jalb qilish maqsadida, Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining Xalq Komissarlari Sovetining 1920 yil 3 dekabrda buyrug'i bilan, inproslarning pedagoglari Turkiston Davlat universiteti o'qituvchilariga tenglashtirildi. O'zbek yigitlar va xotin-qizlar bilim yurtidan tashqari, yana, qozoq va turk-tatar bilim yurti ochildi, shundan birmuncha vaqt keyin, Toshkentda mahalliy yahudiylar bilim yurti, tojik va turkman bilim yurti ochildi. Bu bilim yurtlari, hammasi bo'lib, bir mingga yaqin o'qituvchi tayyorlab chiqardi. Inproslar faqat pedagog kadrlar tayyorlash sohasidagina katta rol o'ynab qolmay, balki yangi sovet milliy ziyolilari etishtirishda ham katta rol o'ynadi. 1929 yilda inproslar pedagogika texnikumlariga aylantirildi. Shu yilda Farg'onada ham pedagogika instituti ochildi.

1930-yil 9 sentabrda O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligining 146-raqamli buyrug'i bilan F.Xo'jayev nomidagi Buxoro oliy pedagogika instituti ochilgan edi. Bugungi Buxoro davlat universitetining tashkil topish sanasi yuqoridagi qaror bilan bog'liq bo'lib, 1930 -yil 8 -noyabrda ilk bor o'quv mashg'ulotlari boshlanib, dastlab institutda tarix

va kimyo – biologiyadan iborat ikki bo'lim mavjud bo'lgan. 1931- yilda fizika – matematika, 1934- yilda esa o'zbek tili va adabiyoti fakulteti ish boshladi. Institutda 1931 -1934 yillarda fizika, matematika, tarix, agropedagogika kafedralari faoliyat ko'rsatib, unda ishlagan pedagog xodimlar soni 17 nafarni tashkil etgan. Buxoro davlat pedagogika instituti qoshida 1934 yilning sentabridan Xorazm viloyati uchun ikki yillik o'qituvchilar tayyorlash instituti ochildi [5].

O'zbekiston jumg'uriyatida madaniy qurilishda maktab va turli xil maktablar o'qituvchilar bilan ta'minlash alohida e'tibor berildi. Samarqand shaxrida pedagogika instituti tuzildi [6].

O'zbekiston davlat universiteti 1936-yil o'quv rejasida milliylikni buzish holati namoyon bo'ladi [7]. O'zbekistonda madaniy kuchlarning, shu jumladan, o'qituvchi kadrlarning kamligi sababli, o'qituvchilar tayyorlash sohasidagi mavjud tizimni kengaytirish zarur bo'lib qoldi. Pedagogika texnikumlari va maorif institutlari o'qituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'la qondira olmas edi. Shu munosabat bilan, qisqa muddatli kurslar (o'rta hisob bilan bir yillik kurslar) ochish yo'li bilan o'qituvchilar tayyorlash lozim bo'lib qoldi. Pedagoglarga bo'lgan ehtiyoj bu kurslarda shuningdek, Maorif Xalq Komissarligining ixtisos ta'limi Bosh Boshqarmasiga qarashli pedagogika o'quv yurtlarida o'qituvchilar tayyorlab chiqarish yo'li bilan qoplandi.

Bunday qisqa muddatli kurslar ko'ngildagidek samara bera olmas edi, albatta; chunki bir yil ichida har tomonlama yetuk o'qituvchilar tayyorlash va ularga maktabda ishlashda

1925-1926 o'quv yilidagi kurslarda o'qigan o'qituvchilar tarkibi[9]

Jinsi	Millati	Ijtimoiy kelib chiqishi							
		o'zbek	tojik	tatar	rus	boshqa	dehqon	ishchi	xizmatchi
Yigitlar	1305	89	165	-	57	1334	106	75	101
Qizlar	139	-	109	22	9	148	17	68	46
Jami	1444	89	274	22	66	1482	123	143	147

Shunday qilib, o'qituvchilarning asosiy ommasi dehqonlardan edi. Ko'pchilik o'qituvchilarning o'qituvchilik tajribasi uncha katta emas edi. Masalan, qayta tayyorlash kursda o'qigan hamma o'qituvchilardan:

- o'qituvchilik tajribasi aslo bo'lmaganlar - 225 kishi;
- bir yildan uch yilgacha tajribaga ega bo'lganlar — 1341 kishi;
- uch yildan besh yilgacha stajga ega bo'lganlar — 170 kishi;
- besh va undan ko'proq yillik stajga ega bo'lganlar — 159 kishi edi

Buning sababi shunda ediki, o'zbek o'qituvchilarining asosiy ommasi faqat keyingi yillardagina tayyorlangan edi.

Keyinchalik respublikada o'qituvchilar malakasini oshirish uch yo'l bilan olib borildi:

- a) o'qituvchilar qisqa muddatli kurslari yo'li bilan;
- b) o'qituvchilar bilan tayanch maktablar qoshida kundalik mashg'ulot olib borish yo'li bilan;
- v) mustaqil ma'lumot olish yo'li bilan.

1931-yil 10-dekabrda Markaziy Bolalar Komissari Maorif Komissarligidan ta'mirlash uchun 11728 so'm 88 tiyin olingan va shu bilan birga elektr o'tkazishni so'raydi[10].

1930-1931 o'quv yilida o'quvchilarni tayyorlaydigan ikki yillik kurslarga 3861 ta o'qituvchi, bir yillik kurslarga 1296 ta o'qituvchi, olti oylik kurslarga 11491 ta o'qituvchi tahsil oldi[11].

Xalq maorifida o'qituvchi kadrlarni zamon talabiga mos o'qitish va tayyorlash uchun Turkiston davlat universiteti 1919-yil 3-sentabrda Rossiyadan 20nafar yuqori salohiyatli professorlar taklif etildi[12].

zarur bo'ladigan nazariy bilimlar va amaliy malakalar berish qiyin edi. Qisqa muddatli kurslar majburiyat orqasida vaqtincha ochilgan edi, binobarin, Maorif Xalq Komissarligi 1925/26 o'quv yilidan boshlab ikki yillik kurslar ochish yo'liga o'tdi, lekin bu muddat ham o'qituvchilar tayyorlashda eng qisqa muddat deb qaraldi. Qisqa muddatli kurslarda o'qib chiqqan o'qituvchilarning bilim va malakasi joylarda planli ravishda mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan oshirib borildi.

1925 yilning fevralida Toshkentning sobiq eski va yangi shaharlari hamda butun Toshkent uezdi o'qituvchilarining qo'shma kengashi chaqirildi. Bu kengashda M. I. Kalinin nutq so'zledi. M. I. Kalinin o'z nutqida: «Sovet hukumati hozir o'qituvchilarga juda katta e'tibor bilan qaraydi. Nima uchun hozirgi vaqtda madaniy ehtiyojlarni qondirish jismoniy ehtiyojlarni qondirish singari juda muhim bo'lib qoldi» degan edi. M. I. Kalinin bu nutqida milliy kadrlar tayyorlash konkret dasturini bayon qilib berdi. O'qituvchilarning qo'shma kengashida qabul qilingan rezolyusiyada: «Toshkent o'qituvchilari Kommunistik partiya rahbarligida ishlashga o'zining batamom tayyor ekanini izhor qiladi» deyilgan edi [8].

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchilar ommasini qayta tayyorlashga alohida e'tibor berib keldi va bu ishni yildan-yilga kengaytirib va chuqurlatib bordi. Mahalliy millatlar birinchi bosqich maktablari o'qituvchilarining 85 % i va qishloq o'qituvchilarining hammasi qayta tayyorlash kurslarida o'qidi.

Xalq maorifini rivojlantirish uchun kadrlar turli xil tahlil qilingan. Jumladan, 1924-yil milliylikni xususida O'rta Osiyo davlat universiteti talabalar ro'yxatida 90nafar talabadan 1nafar o'zbek bo'lgan[13].

1925/26 o'quv yilida Samarqandda Tojik xotin-qizlar pedagogika texnikumi ochildi[14].

**Xulosa va takliflar.** O'qituvchilarni ikki yil mobaynida kurslarda qayta tayyorlash natijasida o'qituvchilarning umumiy ma'lumot darajalari ancha oshdi. O'qituvchilar umumiy ma'lumotining oshib borishi maktablarda yuqori sinflarning ko'payishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'qituvchilar kam bo'lganligidan maktablarda yuqori sinflar ochilmay qolar yoki ochilsa ham, o'qishlar normal davom etmas edi. Keyinchalik bu kamchilikka ham barham berildi. O'qituvchilar aholi orasida, ayniqsa qishloq tumanlarda juda katta obro' qozondilar, ular o'zlarining butun bilim va kuchlarini dehqonlar orasida targ'ibot ishlari, tarbiyaviy ishlar olib borishga sarfladilar. O'qituvchilar O'zbekistonda er islohoti o'tkazishda, rayonlashtirishga tayyorgarlik ko'rishda faol qatnashdilar. Mavjud hujjatlar o'qituvchilarning faoliyatini bizga yaqqol ko'rsatib beradi. «O'qituvchilarning ijtimoiy ishlari qishloqda ayniqsa yaqqol ko'rindi, biz buni er-suv islohotida ko'rdik, o'qituvchilar er islohoti komissiyasi ishlarida, targ'ibot tushuntirish kompaniyasida faol ishtirok qildilar. Sovet jamoat xodimlari bo'lgan o'qituvchilar qizil choyxonalarda, savodsizlikni tugatish maktablarida, aholi o'rtasida kunma-kun juda katta ish olib bordilar; bu narsa o'qituvchilar asosiy ommasining sovet hokimiyatining g'oya va choralarini amalga oshiruvchi eng yaxshi xodimlar ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi, bu shubhasizdir».

## ADABIYOTLAR

1. Akramov D. Sovet hokimiyatining savodsizlikka qarshi kurashi //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
2. ЎзМА 34-фонд, 1-рўйхат, 9120-иш, 98-варақ.
3. Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. T. 2012. 96-bet.
4. Maktab qurilishi borishi haqida./Buxoro haqiqati. 1938.14-may. 15-son.
5. Buxoro davlat universiteti: Ilm va ta'lim fidoiylari (Bibliografik ma'lumotlar). Mas'ul muharrir To'laganov. A.A. Buxoro. 2016. 4-bet.
6. O'zbekiston jumg'uratida madaniy qurilish / Qizil O'zbekiston 1930-yil 17-fevral, №39. 1-bet.
7. Самарканд ВДА 521-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 82-варақ.
8. /«Правда Востока», 1925 йил, 9 феврал.
9. Rajabov S “O'zbekiston sovet maktabi tarixiga doir”. T: O'zo'quvpeddavnashr.1957. 49-bet.
10. O'zMA 95-фонд, 1-ro'yhat, 2755-ish, 23-varaq.
11. Ochilov M. O'zbekiston komsomolining umumiy-majburiy ta'lim uchun kurashi. T.: O'zdavnashr. 1958. 53-bet.
12. O'zMA, R368-фонд, 9-ro'yhat, 1-ish, 25-varaq.
13. O'zMA 34-фонд, 1-ro'yhat, 2463-ish, 172-173-varaq.
14. Akramov F. The role of women in education in uzbekistan during the soviet period. Look to the past. 2022, Vol. 5, Issue 4, pp.



*Ithomjon G'ULOMOV,*  
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti v.b., t.f.f.d. (PhD)*  
*E-mail: ikgulamov@mail.ru*

*O'zMU professori X.Yunusova taqrizi asosida*

## POPULATION CENSUS IN THE UZBEK SSR IN 1937: PROPOGANDA AND PUNISHMENT

Annotation

In this article, it is defined the affairs of register of the population in Uzbekistan SSR (Soviet Socialist Republic) in 1937. In addition, Soviet Union's purposes is determined widely which is from register of the population. In 1937, the population of the Uzbekistan SSR is registered and Central Statistical Committee formed population's statistics. The final results of the register of the population are analyzed respectively through the published main statistic sources which are regions' sections. Through the conclusion of the register of the population the economical, social, and political life is planned to the next decades in this place.

**Key words:** Population census activities, Population registration program, population size, population report, natural population growth, indigenous population, population density, city, county, rural population, registration program, punitive measures, statistics, accountant, instructor.

## МЕРОПРИЯТИЯ ПО ПРОВЕДЕНИЮ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1937 ГОДУ: АГИТАЦИОННЫЕ РАБОТЫ И КАРАТЕЛЬНЫЕ МЕРЫ

Аннотация

В данной статье описаны мероприятия по переписи населения проведенной в 1937 году в Узбекской ССР. Проанализированы формирование Центральным статистическим управлением статистики переписи населения в 1937 году, проведенной на территории республики, и публикации окончательных результатов этого мероприятия в разрезе областей на основе первичных статистических источников. Исходя из результатов данного мероприятия были изучены дальнейшие планы социально-экономической и политической жизни республики на предстоящие годы.

**Ключевые слова:** Мероприятия по переписи населения, программа регистрации населения, численность населения, отчет о численности населения, естественный прирост населения, коренное население, плотность населения, город, уезд, сельское население, карательные меры, статистика, бухгалтер, инструктор.

## O'ZBEKISTON SSRDA DEMOGRAFIK SIYOSAT (1937-YILDA O'TKAZILGAN AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekiston SSRda 1937-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, maqolada aholini ro'yxatga olish tadbiridan sovet hokimiyati hukmron doira vakillarining ko'zlagan maqsadlari ham atroflicha yoritilgan. 1937-yili respublika hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri jarayonida Markaziy Statistika Boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan aholi statistikasi shakllantirilganligi va mazkur tadbirning yakuniy natijalari viloyatlar kesimida chop etilgani birlamchi statistik manbalar asosida atroflicha tahlil qilingan. Ushbu tadbir natijalariga asoslangan holda oldindan kelgusi yillarga respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotni rejalashtirilgani to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Aholini ro'yxatga olish tartibi, aholini ro'yxatga olish dasturi, aholi soni, jinsiy tarkib, aholi tabiiy o'sishi, statistika, doimiy aholi, aholi zichligi, shahar, uyezd, qishloq aholisi, jazo choralari, hisobchi, nazoratchi-instruktor.

**Kirish.** Jahon miqyosining barcha mamlakatlarida aholi soni, inson omili va ijtimoiy muammolarni hal qilish to'g'risidagi statistik ma'lumotlar har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida statistika to'g'risidagi qonunlar mavjud bo'lib, aholini ro'yxatga olish jarayonida jismoniy shaxslardan olingan ma'lumotlardan faqatgina statistik maqsadlarda foydalanish, jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatda istiqomat qilayotgan fuqarolar, xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ularning uy-joylari haqida to'liq ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda BMT faoliyatida ham jamiyat siyosiy hayotini rag'batlantirish, demokratik saylovlarni o'tkazish, davlat resurslaridan oqilona foydalanish, ularni taqsimlash ishlarida esa aholini ro'yxatga olishning o'zni muhim ahamiyatga ega.

1937-yili O'zbekiston SSRda aholini ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etgan va mazkur tadbirning yakuniy natijalari sababli "ishiga bo'lgan mas'uliyatsizlik, tadbirni

o'tkazilishiga jiddiy e'tibor bermaganlik" kabi ayblovlar bilan otib tashlangan yoki surgun qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'pchilikka noma'lum.

"Katta qirg'in" (1937-1938) yillari "xalq dushmanlari"ni qidirib topish va jazolash vasvasasi keng tus oldi. Respublikada avj olgan qatag'on jarayonida aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish rejashtirilib, barcha bo'g'im rahbarlariga bir qator vazifalar belgilab berildi. 1930-yillar davomida O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan aholini ro'yxatga olishdagi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yan ko'plab hisobchi, nazoratchi-instruktor va turli darajadagi rahbar xodimlar tuhmat bilan ayblangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aholini ro'yxatga olish tarixiga oid qator tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lsa-da, aynan 1937-yilda o'tkazilgan bu tadbir bo'yicha na sovet davrida, na mustaqillik yillarida jiddiy tahliliy izlanishlar olib borilmagan. Eng avvalo, 1937-yilga tegishli ro'yxatga olishga doir hujjatlar arxivlarda maxfiylashtirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar mustaqillikning yaqin yillarigacha keng jamoatchilikka ochiq qolmagan.

1937-yilgi tadbirning dasturini ishlab chiqqanlar va aholini ro'yxatga oluvchi hisobchilar, yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilib chop etishga tayyorlovchilarning ko'pchiligi va ayrim rahbar xodimlar bu jarayon ko'zlangan ijobiy natija bermaganligi sababli surgun qilingan yoki turli ayblovlar bilan otib tashlangan[1]. Aholi to'g'risida yig'ilgan statistik ma'lumotlar esa markaz tomonidan haqiqiy deb tan olinmaganligi bois deyarli yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida "maxfiy" va "o'ta maxfiy" tamg'a bilan cheqlovlar ostida saqlangan[2].

1937-yil 6-yanvar kuni o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ijtimoiy-siyosiy jarayonni o'tkazish uchun umumiy hisobda 6 kun vaqt belgilangan[3]. Aslida esa belgilab berilgan vaqt mobaynida respublikadagi barcha aholini ro'yxatga olishning imkoni yo'q edi. Buning asosiy sababi ro'yxatga olishga biriktirilgan xodimlarning yetishmasligi va yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmaganligi bilan izohlanadi. Bu jarayonga biriktirilgan barcha hisobchi va nazoratchi-instruktorlarga mazkur tadbirni samarali o'tkazish uchun bir qancha vakolatlar berilgan. Ro'yxatdan o'tishga qarshilik qilgan aholi esa konstitutsiyada belgilangan qonunlar bo'yicha jazoga tortilishi to'g'risida ogohlantirildi. Buni oldingi yillarda shu yo'nalishda o'tkazilgan ro'yxatga olish ishlari misolida ham ko'rish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** 1937-yilgi ro'yxatga olish dasturiga kiritilgan savollarni oldingi yillarda o'tkazilgan ro'yxatga olish dasturlaridagilar bilan o'zaro taqqoslab tahlil qilinganida, faqatgina 1937-yilgi tadbir dasturining ro'yxatga olish varag'iga "diningiz" degan alohida savol kiritilganligi ushbu jarayonni yorituvchi hujjatlar asosida aniqlandi[4]. 1920 va 1926-yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida alohida bunday savol kiritilmagan[5]. "E'tiqod qiluvchi diningiz?" degan savol qaysidir savolning tarkibiy qismi sifatida (savol ichida) keltirilgan xolos. Keyingi yillarda ham "diningiz" degan alohida savol ro'yxatga olish varag'iga umuman kiritilmagan. 1937-yilgi tadbir davomida diningiz degan savoldan tashqari "dinga ishonasizmi yoki ishonmaysizmi?" degan qo'shimcha savollarga ham javob olishlari to'g'risida hisobchilarga tushuntirishlar berilgan[6].

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, ro'yxatga olish varag'idagi savollar tarkibiga "diningiz?" degan alohida savol kiritilishi ham, mintaqa hududida mahalliy aholining dinga bo'lgan e'tiqodini aniqlash yoki oldingi yillarda bo'lib o'tgan bu kabi jarayonlarda dinga qattiq ishongan mahalliy aholi tomonidan ko'plab muammolar kelib chiqqanligi e'tiborga olinib, 1937-yilgi aholini ro'yxatga olish dasturiga shu savol kiritilgan va bu orqali 1926 – 1937 yillar oralig'ida mahalliy aholining dinga bo'lgan munosabati qay darajada o'zgaraganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash reja qilingan.

Bundan tashqari, arxiv hujjatlari asosida 1937-yilgi ro'yxatga olish tadbirida ism-sharifini to'liq yozishni bilganlar ham savodli aholi qatlamiga kiritilganligi aniqlandi[7]. Hisobchi va nazoratchi-instruktorlarga bunday qilishlari to'g'risida Markaziy Statistika Boshqarmasining aholini ro'yxatga olish byurosi rahbari I.Nikich 1936-yil 27-dekabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda shunday ko'rsatma berganligi aniqlandi[8].

Yuqoridagi manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, faqatgina ism-sharifini bo'lsa-da to'liq va xatosiz yoza oladigan aholini savodli aholi qatlamiga kiritishdan ko'zlangan rejada O'zbekiston SSRning ziyoli aholi qatlami ko'rsatkichini oshirib, bu bilan qaysidir ma'noda SSSR hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samarasini bo'rttirib ko'rsatish maqsad qilingan.

1937-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalariga ko'ra, O'zbekiston SSR aholisi soni juda ham ozchilikni tashkil etganligi va 1926-yilda o'tkazilgan bu jarayonga nisbatan kutilmagan salbiy natijalar olinganligi

tufayli markaz vakillari bu yilgi ro'yxatga olish natijalarini haqiqiy emas, aksincha, juda ko'plab muammo va kamchiliklar bor deb topildi[9]. Maxfiy muhr ostida saqlangan arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bu ishga bevosita biriktirilgan rahbar va ko'plab xodimlarning ko'pchiligi qamoqqa olingan, ayrimlari esa o'sha yillarda avj olgan Stalin qatag'on siyosati sababli fuqarolik huquqidan mahrum qilinib surgun qilingan, ba'zilar esa otib tashlanganligi aniqlandi[10]. Bir narsani muhim ma'lumot sifatida aytish joizki, 1937-yilgi ro'yxatga olish tadbiriga SSSR va ittifoqdosh respublikalar bo'yicha umumiy hisobda 1 mln.dan ortiq hisobchi va nazoratchi-instruktorlar xodimlar ro'yxatga olish ishlariga jalb etilgan[11]. Fikrimizcha, bu keltirib o'tilgan raqam ostida nafaqat hisobchi va nazoratchi-instruktorlar, balki, ushbu ishga har qanday darajada yordam berishi lozim bo'lgan turli idora ishchilari (turli idora rahbarlari, ichki ishlar idorasi vakillari, kasaba uyushmasi xodimlari va boshqalar) ham kiritib yuborilgan.

1937-yilgi aholini ro'yxatga olish vaqtida ro'yxatga oluvchi hisobchilarga "hisobchilar uchun eslatma"lar tarqatilgan[12]. Bu "hisobchilar uchun eslatma"ga amalda unchalik ham rioya etilmagan. Bu esa statistlar tomonidan tadbirning yakuniy natijalarini hisoblashda ko'plab chalkashliklarga olib kelgan bo'lishi tabiiy hol. Ko'plab hisobchilar aholi qo'liga oldindan tarqatilgan ro'yxatga olish varag'lari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirib ham ko'rishmagan. Bu ham qaysidir ma'noda olib qaraganda ushbu jarayon natijalari markaz tomonidan tan olinmasligiga olib kelgan kichik sabablardan biri bo'lgan.

1937-yilda bo'lib o'tgan bu jarayonda aholisining deyarli 57 foizi (asosan qishloq hududlarida) ro'yxatga olish varag'idagi e'tiqod borasida berilgan savolga dinga ishonuvchan kishilar sifatida javob bergan[13]. Bu holat o'sha yillarda muntazam chop etilgan "Qizil O'zbekiston" gazetasining bir necha sonlaridagi maqolalarda ham o'z aksini topgan[14].

SSSR XKSning 1936-yil 28-apreldagi 121-sonli qaroriga ko'ra, aholini ro'yxatga olish uchun bo'yicha kadrlarni tanlash va tasdiqlash ishlarini oxirgi muddati 1-noyabrga mo'ljallangan bo'lib, bu ish ham amalda belgilangan muddatda oxiriga yetkazilmagan[15]. N.Antipov[16] mahalliy rahbarlarga "aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida" yo'llagan telegrammasida O'zbekiston SSRda ro'yxatga oluvchi hisobchilarning ko'rsatkichi 47,9 foizni[17] tashkil etishi ko'rsatilib, amalda bu ish bajarilmaganligi ta'kidlanadi.

1937-yil 6-yanvar ro'yxatga olish kuniga qadar (1937-yil 1-5 yanvar) jami 25 ming hisobchi ro'yxatga olish varag'ini oldindan to'ldirish ishlariga jalb etildi[18]. O'zbekiston SSRda 1937-yil 6-yanvar kuni aholini ro'yxatga olishga umumiy hisobda 30 mingga yaqin hisobchi, nazoratchi-instruktor, uchastka vakillari va ularning yordamchilari jalb etildi[19]. O'zbekiston SSRning barcha aholisini ro'yxatga olishda faol ishtirok etishga chaqirish maqsadida 400 ga yaqin shior, e'lon va bu tadbirni yahshi o'tkazishga undovchi turli ko'rinishdagi plakatlar tayyorlanib, asosan respublikaning chekka rayon va qishloqlariga yuborildi. Bundan tashqari, ko'plab mahalliy matbuot gazetalarning deyarli barcha sonlarida chop etilgan maqolalarda ushbu ijtimoiy va siyosiy jarayonni aholi orasida keng yoritishda hamda targ'ibot ishlarini olib borishda keng ko'lamli ishlar olib borilgan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan manbalar va mavzuga doir adabiyotlarda takidlangan ma'lumotlar asosida shunday tahliliy xulosa kelib chiqadiki, sovet hokimiyati aholini ro'yxatga olishda – aholining umumiy (har bir hudud kesimida) soni, geografik joylashuvi, jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, millati, ma'lumoti, kasbi, halq xo'jaligida tutgan o'rni kabi bir qator muhim hisoblangan statistik ma'lumotlarni oldi va bu ma'lumotlardan foydalanib, kelgusi yillarda iqtisodiy va

siyosiy rejalarini izchil ravishda amalga oshirib bordi. Turli yillar davomida o'tkazib kelingan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida aniqlangan raqamlardan ikkinchi jahon urushi yillarida ham markaz hukumati ustamonlik bilan foydalandi.

Umuman olganda 1937-yilda aholini ro'yxatga olish tadbiri natajasida SSSR va ittifoqdosh respublikalarida avj

olgan qatag'on siyosati oqibatlarini yo'qdek qilib ko'rsatish, mamlakatda farovon hayot, aholini tabiiy o'sishi, savodsizlik to'liq tugatilgani va dinga qarshi kurash siyosatidagi ijobiy natijalar tasdiqlash orqali dunyoga sotsializm yutuqlarini ko'z ko'z qilinishi kerak edi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA). R-1619-fond, 11-ro'yxat, 427-ish, 3-varaq.
2. Всесоюзная перепись населения 1937 года. Сборник документов и материалов. Москва. 2007. –С.14.
3. Переписи населения: альбом наглядных пособий. Москва. Институт Изостат. 1938. –С.6.
4. Переписи населения: альбом наглядных пособий. Москва. Институт Изостат. 1938. С. 25.
5. O'z MA. R-1619-fond, 1-ro'yxat, 35-ish, 14-varaq.
6. O'z MA. R-1619-fond, 11-ro'yxat, 427-ish, 11-varaq.
7. O'z MA. R-1619-fond, 11-ro'yxat, 427-ish, 11-varaq.
8. O'z MA. R-1619-fond, 11-ro'yxat, 170-ish, 8-varaq.
9. O'z MA. R-1619-fond, 11-ro'yxat, 429-ish, 2-varaq.
10. O'sha joyda. 11-ro'yxat, 429-ish, 6-varaq.
11. O'z MA. R-1619-fond, 11-ro'yxat, 427-ish, 15-varaq.
12. Бланки и пособия для счетчика в городских поселениях. Москва. 1936. –С.8-9.
13. Всесоюзная перепись населения 1937 г. Краткие итоги. Москва. 1991. –С.37.
14. Aholi ro'yxati arafasida; Sinov ro'yxat tamomlandi; Butun bir hovli esdan chiqib qolgan Qizil O'zbekiston. 1937 yil 8 yanvar. № 6 (3784). 3-5 betlar.
15. Всесоюзная перепись населения 1937 г. Краткие итоги. Москва. 1991. –С.73.
16. Антипов Н. СССР ХКК қошидаги совет назорати комиссияси раиси вазифасида фаолият олиб борган.
17. O'z MA. R-1619-fond, 17-ro'yxat, 78-ish, 6-varaq orqasi.
18. O'sha joyda. 11-ro'yxat, 24-ish, 32-varaq.
19. Aholi ro'yxati arafasida. Qizil O'zbekiston. 1937 yil 2 yanvar. № 4 (3779). 2-bet.



UDK: 930.1

*Jasur LATIPOV,*  
*Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchi*  
*E-mail: jasur\_lazizovich@bk.ru*

*BuxDU dotsenti, t.f.f.d. M.Z. Orziyev taqrizi asosida*

## THE ROLE OF THE LIAO DYNASTY IN THE FORMATION OF THE “NORTH-SOUTH DYNASTIAL BALANCE” IN CHINA

Abstract

The article deals with the diplomatic relations of the Empire of Liao, which ruled in the north of China and Manchuria in the Middle Ages, with the Empire of Song in the south and the formation of a peaceful political balance between these two states.

**Key words:** Liao Empire, Khitans, khaghan Yelu Abaoji, “Five Dynasties” period, diplomatic relations, Song Empire, Chinese people, tales of the “The Generals of the Yang Family”, khaghan Yelu Xian, “Northern Palace”, “Southern Palace”, emperor Zhao Kuangyi, battle of Gaoliang River.

## РОЛЬ ДИНАСТИИ ЛЯО В ФОРМИРОВАНИИ “ДИНАСТИАЛЬНОГО БАЛАНСА СЕВЕР-ЮГ” В КИТАЕ

Аннотация

В статье рассматриваются дипломатические отношения империи Ляо, правившей на севере Китая и Маньчжурии в средние века, с империей Сун на юге и формирование мирного политического баланса между этими двумя странами.

**Ключевые слова:** Империя Ляо, кидани, каган Елюй Абаози, эпоха “Пяти династий”, дипломатические отношения, империя Сун, китайцы, рассказы о “Генералы семьи Ян”, каган Елюй Сянь, “Северный двор”, “Южный двор”, император Чжао Куаньйи, битва за Река Гаолян.

## XITOIDAGI LYAO SULOLASINING “SHIMOLIY-JANUBIY SULOLALAR” MUVOZANATI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada o'rta asrlarda Xitoyning shimoli va Manjuriya hududlarida hukm surgan Lyao imperiyasining janubdagi Sung imperiyasi bilan diplomatik munosabatlari va ushbu ikki davlat o'rtasidagi tinch siyosiy muvozanatning shakllanishi xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Lyao imperiyasi, xitanlar, xoqon Yelyuy Abaoszi, “Besh sulola” davri, diplomatik munosabatlar, Sung imperiyasi, xitoyliklar, “Yang xonadoni sarkardalari” qissalari, xoqon Yelyuy Syan, “Shimoliy saroy”, “Janubiy saroy”, imperator Chjao Kuang'i, Gaolyang daryosi bo'yida bo'lgan jang.

Shimoliy Xitoy, Manjuriyada X asr boshlarida qaror topgan Xitan (Lyao) imperiyasi (907-1125) tashkil topgan vaqtdan boshlab yirik harbiy kuchga va siyosiy ta'sirga ega bo'lib kelgan. Ushbu davlat Shimoliy Xitoy, Manjuriya va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, etnogenezi hamda siyosiy-madaniy taraqqiyotiga muhim ta'sir o'tkazganligi bilan tarixda qolgan. Uzoq yillar davomida Xitoydagi siyosiy gegemonlikni qo'ldan boy bermagan Lyao imperiyasi shato turklari va xan millatiga mansub sulolalar tomonidan asos solingan davlatlarning doimiy qarshiligiga duch kelgan bo'lsa-da, ushbu raqobatchilarga o'z siyosiy ta'sirini muntazam ravishda o'tkaza olgan. Bu maqolada biz Shimoliy va Markaziy Xitoydagi siyosiy kurashlar, xalqaro nizolar natijasi o'laroq shakllangan Sung imperiyasi (960-1279)ning Lyao xoqonligi bilan faol diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishi jarayonlari xususida so'z yuritimiz.

Lyao sulolasining asoschisi Yelyuy Abaoszi (907-926) va ikkinchi imperatori Yelyuy Deguang (926-947) davrida Xitoydagi “Besh sulola” bilan faol tashqi aloqalar yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, keyinchalik o'rtadagi munosabatlar harbiy nizolarga aylanib ketgan. Tarixiy adabiyotlarning ma'lumot berishicha, Lyao imperiyasidan “Besh sulola” davlatlari saroyiga jami 40 marta elchilar jo'natilgan[1]. Kechki Lyang (Xou Lyang, 907-923) davlatining davomchisi bo'lgan sulolalar bilan Xitan imperiyasining munosabatlari aksariyat hollarda nizoli bo'lib, kelib chiqqan siyosiy nizolar natijasida Kechki Tang (Xou Tang, 923-937) va Kechki Szin (Xou Szin, 936-947) sulolalari boshqaruvining yakunlanishi

bevosita xitanlar ishtirokida amalga oshgan edi. Kechki Szin, Kechki Xan (Xou Xan, 947-951), Shimoliy Xan (Bey Xan, 951-979) kabi rasman Xitoydagi oliy markaziy hokimiyatga da'vo qiluvchi davlatlar tomonidan Lyao imperiyasi siyosiy ustunligining ochiqdan-ochiq yoki ramziy ko'rinishda tan olinishi, ushbu davlatlar hukmdorlarining o'zini xitanlar xoqonining “o'g'li”, “jiyani”, “nabirasi” sifatida etirof etishi kabi belgilar o'z boshqaruvida xitoycha an'anaviy tartiblar joriy qilina boshlangan Xitan imperiyasining mintaqadagi siyosiy gegemonligini yaqqol namoyon etardi.

Ammo, imperator Shizung (Yelyuy Uyuy, 947-951) va uning davomchisi imperator Muszung (Yelyuy Shulyuy, 951-969) davrida vaziyat o'zgarib, Kechki Chjou (Xou Chjou, 951-960) hamda Sung imperiyalaridagi kuchli markazlashuv natijasida Lyao hokimiyatining xalqaro siyosiy ta'siriga ma'lum ma'noda putur etgan. Ushbu xoqonlar davrida sulola hukumatining ichki siyosiy nizolar bilan ovora bo'lishi natijasida ba'zi hududlar ma'lum muddat xitoyliklarga boy berib ham qo'yilgan. Ammo, imperator Muszung vafotidan so'ng vaziyat sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zgarib boshlaydi. Fikrimizcha, ushbu progressiv jarayon tashqi xavf ta'sirida Lyao imperiyasi siyosiy elitasining yosh xoqon atrofida birlashishi natijasida yuzaga kelgan.

Xoqon Yelyuy Syan (imperator Szinszung, 969-982) otasi, imperator Shizung o'ldirilgan vaqtidagi qirg'inlardan omon qolgan edi. Tarixiy adabiyotlarda uning jismonan zaif bo'lib, davlat ishlari bilan deyarli shug'ullanmaganligi, shu sababdan uning hukmronlik davriga nisbatan o'sha davrlarda

“tongda tovuq qichqirishi” kabi kinoyali iboralar ishlatilganligi haqida yoziladi[2]. Biroq, yangi hukmdor janubda paydo bo'lgan yirik raqib – Sung imperiyasining kuchli tazyiqlariga qarshi tura olgan. Nafaqat qarshi turish, balki, keyingi yillarda xitoyliklar ustidan yirik g'alabalar ham qozonilganki, bu imperiyaning muqarrar tanazzul holatidan ilgariqidan ham yuqoriroq xalqaro siyosiy nufuzini ta'minlab beradi.

Yangi hukmdor taxtga o'tirgan vaqtda Sung imperiyasi qo'shinlari Shimoliy Xan davlatiga qarshi urushayotgan bo'lib, Lyao imperiyasi o'z ittifoqchisi bo'lgan Shimoliy Xan sulolasining himoyasi uchun qo'shinlar yuboradi. O'sha vaqtda ikki yo'nalishda harakatlangan xitan qo'shinlarining biri mag'lubiyatga uchragan[3]. Ammo, urush harakatlari Sung sulolasi foydasiga yakunlanmaydi. Shimoliy Xan hukumatidagi inqiroz (aniqrog'i, 968-yilda yuz bergan taxt mojarolari) ham Sung istilosini yengillashmagan. Yordamga kelgan xitanlarni mag'lub etgan bo'lsa-da, bir necha oylik muvaffaqiyatsiz qamaldan so'ng Sung armiyasi urushni to'xtatishga va chekinishga majbur bo'lgan[4].

Sung imperiyasi tomonidan 965-yilda janubi-g'arbdagi Kechki Shu davlati (Xou Shu, 934-965), 971-yilda janubdagi Janubiy Xan davlati (917-971), 975-yilda janub-sharqdagi Janubiy Tang davlati (Nan Tang, 937-975), 978-yilda esa sharqiy yo'nalishda dengizbo'yi Uyue davlati (907-978) bosib olingan. Shuningdek, boshqa bir qator kichik mustaqil mulklar imperiyaga qo'shib olingan[5]. Shu tariqa, Xitoyni birlashtirish harbiy kampaniyasi natijasida, Shimoliy Xan hududi va Lyao imperiyasi tomonidan egallangan 16 viloyatdan tashqari, butun mamlakat Sung sulolasi hokimiyati ostida birlashtiriladi. Bu esa Janubiy sulolani shimoldagi Lyao imperiyasiga teng raqibga aylantirgan. Ikki yirik davlat umumiy chegaralarga ega bo'lsa ham, shimoli-g'arbiy hududlardagi Shimoliy Xan davlati bir necha yillar o'rtadagi nizoli hudud sifatida saqlanib qoladi.

Xitan armiyasi janubiy yo'nalishda bir necha marotaba kichik hujumlarni amalga oshirib, Sung imperiyasiga qarshilik ko'rsatib kelgan. Jumladan, 970-yilda 60 ming kishilik Lyao armiyasi tomonidan Dingchjou shahri qamalga olinib, oxir-oqibatda Sung armiyasining shaharni tashlab chiqishi va chekinishi bilan yakunlangan[6]. Ammo, har ikki davlatning bir-biriga nisbatan munosabatlari ehtiyotkorlik xarakteriga ega bo'lib, faol harbiy ekspansiyalardan tiyilib turish kayfiyati yaqqol sezilib turadi. Ushbu muddatda Sung imperiyasi janubiy istilolar bilan band bo'lsa, Lyao saroyida xoqon Yelyuy Syan ichki holatni barqarorlashtirish harakatida edi. O'ziga nisbatan imperator Muszung tarafdorlarining xayrixohligini oshirish maqsadida 973-yilda sobiq hukmdor qotillarining shaxsini aniqlab, barchasi qatl etgan[7].

Ko'p o'tmay ikki davlat o'rtasida rasmiy tinchlik munosabatlari o'rnatilgan. Tarixchi Ye Lungli Sung imperiyasi tomonidan tinchlik elchiligining tashkil qilinishiga Lyao chegara noiblari tomonidan jo'natilgan takliflar turtki bo'lganligini yozadi[8]. Ammo, uning Sung saroyi tarixchisi ekanligini va birinchi elchilik aynan xitoyliklar tomonidan yuborilganligini inobatga olib, voqeyaga bo'lgan munosabatni boshqacha tarzda izohlash mumkin. Amerikalik olim D.Rayt fikricha, 974-yilda Sung imperiyasi Lyao saroyi bilan munosabatlarning yaxshilanishidan Shimoliy Xan bilan urushda xitanlarning neytralitetiga erishishni maqsad qilgan[9]. Shu tariqa, 974-yildan boshlab Lyao va Sung hukmdorlarining yangi yil bilan bir-birini tabriklashlari bahonasida ikki davlat o'rtasida tenglikka asoslangan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yiladi.

Keyingi yillari Lyao saroyidan ham bir necha marotaba Sung imperiyasiga elchilar yuborilib, hatto, bir safar xitanlarning sobiq ittifoqchisi bo'lgan Janubiy Tang davlati egallanishi munosabati bilan maxsus tabrik elchiligi tashkil etilgan. 976-yilda esa Lyao saroyidan Sung imperatori Chjao

Kuang'in (960-976) vafotiga ta'ziya hamda uning ukasi Chjao Kuang'i (976-997)ning taxtga o'tirganligi uchun qutlov elchiligi jo'natilgan[10]. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida savdo munosabatlari ham rivojlana boshlagan. Ikki davlat o'rtasidagi iliq munosabatlar Sung sulolasi tomonidan Shimoliy Xan davlatini bosib olish uchun qilingan harbiy kampaniya boshlangan vaqtga qadar davom etadi.

Aytish joizki, Lyao imperiyasi o'z ittifoqdoshi bo'lgan Shimoliy Xan sulolasiga doimiy ravishda moddiy va harbiy yordam ko'rsatib kelgan. Masalan, 977-yilda xitanlar Shimoliy Xan davlatiga 200 ming qop bug'doy ko'rinishida moddiy ko'mak jo'natganlar[11]. Sung imperiyasi esa ushbu davlatni qo'shin olishni maqsad qilgan bo'lib, bo'lajak urushda xitanlar betarafliqiga erishishni rejalashtirganlar. Shuning uchun, Sung saroyi Lyao davlati bilan munosabatlarda do'stlik holatini rivojlantirishga harakat qilgan. 977-yilda Sung imperiyasida xitanlar bilan savdoning tartibga solinishi uchun maxsus idoralar tashkil eta boshlangan[12]. O'sha yili Lyao imperiyasiga jo'natilgan Sung elchiligi Shimoliy Xan davlatining xitanlar tomonidan himoya qilinishini to'xtatishga erishmoqchi edi. Biroq, bu borada Lyao xoqonligi o'z raqibining hiylalariga aldanib qolmaydi va Shimoliy Xan davlatiga qarshi harakatlarga rozilik bermaydi. Ammo, 979-yilda Sung imperiyasi qo'shinlari Shimoliy Xan davlatiga hujum qilganlar. Bu Lyao saroyining Sung davlati bilan munosabatlari qayta yomonlashuviga sabab bo'lgan.

Xitanlar o'z himoyasidagi davlatning egallanishiga qarshilik qilish uchun harbiy kuch jo'natsalar-da, ushbu qo'shinlar dastlabki to'qnashuvlardayoq mag'lubiyatga uchragan[13]. Ushbu janglarda ko'pgina xitan askarlari va sarkardalari halok bo'ladi. Xitanlar qo'shinining mag'lubiyatga uchrashi natijasida Shimoliy Xan saroyidagi amaldorlar bir-biriga raqib ikki guruhga bo'linib ketgan. Hujum vaqtda taslim bo'lish taklifini bergan bosh vazir Go Uvey xoinlikda ayblanib, qatl etilgan bo'lsa, obro'li sarkardalardan bo'lgan Yang Ye (Yang Sziye) Sung imperiyasi tomoniga o'tib ketgan[14]. Oxir-oqibatda Sung imperiyasiga bo'ysunish tarafdori bo'lgan guruh o'z maqsadiga erishadi. Shu yilning o'zidayoq Shimoliy Xan davlatining so'nggi hukmdori Lyu Sziyuan (968-979) Sung imperatoriga taslim bo'lgan[15]. Tayyuan shahri o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan bo'lsa ham, xitoyliklar tomonidan yoqib yuborilib, shahar aholisining ko'pchiligi qirib yuborilgan[16]. Xitanlar himoyasida bo'lgan ushbu davlatning tugatilishi natijasida Lyao ta'siri Xedung o'lkasidan siqib chiqariladi.

Shimoliy Xan davlati egallangan bo'lsa-da, Sung imperiyasi armiyasi imperator boshchiligida harbiy yurishlarni Lyao xoqonligi hududlarida davom ettirgan. Lyao hududiga bostirib kirgan xitoyliklar dastlab muvaffaqiyatga erisha boshlaganlar. Jumladan, Chjochjou mavzesi hokimi Lyao hukumatidan yuz o'girib, Sung sulolasi hokimiyatiga bo'ysungan[17]. Biroq, xitoyliklar siyosiy ustunliklardan foydalana olmaganlar. Ko'p o'tmay, Yuchjou shahri atroflarida Sung qo'shinlari mag'lubiyatga uchradilar. Ushbu g'alabani xitanlar uchun yirik ahamiyatga molik bo'lganligi tarixiy adabiyotlar tasdiqlaydi. Masalan, rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davriga mansub “Yang xonadoni sarkardalari” adabiy-badiiy qissalarida Yuchjou qamal qilingan paytda Sung imperatori hayotini yaqindagina uning xizmatiga o'tgan sarkarda Yan ye qutqarib qolganligi haqida hikoya qilingan[18]. Yuchjou qamalining omadsiz yakunlanishi xitanlarning qarshi hujumga o'tishiga imkon yaratadi.

979-yilning yozida Gaolyang daryosi bo'yida bo'lgan jangda Lyao qo'shinlari Sung imperiyasi armiyasi bilan to'qnashgan. Ushbu to'qnashuvda Xitan sarkardasi Yelyuy Syuge yaralangan bo'lsa ham, qo'shinlar raqibga qaqshatqich zarba berganlar. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarda

Yuchjou janubi-g'arbiy tomonida, Gaolyang daryosi bo'yida yuz bergan jangda xitoyliklardan 10 mingdan ortiq askar o'ldirilganligi, ikkita o'q bilan jarohatlangan Sung imperatori Chjao Kuang'i esa eshak-aravada qochib, jang maydonini tark etganligi haqida hikoya qiladi[19]. Albatta, imperator Lyao qo'shinlari bilan to'qnashuvdan yashirin tarzda va eson-omon chiqishi uchun bu ishni qilishga majbur bo'lgan. Tarixchi N.Bichurin xitanlarning ushbu g'alabasiga shimoldan yordamchi kuchlar yetib kelganligi ta'sir ko'rsatganligini yozadi[20]. Lyao qo'shinlari ushbu jangda ko'pgina asir, qurol-yarog', pul hamda ta'minot zaxiralari qo'lga kiritganlar.

O'sha vaqtda Chjao Kuang'i yashirinib yurganligi sababli Sung saroyi amaldorlari tomonidan ma'lum muddat vafot etgan deb hisoblangan. Natijada Xitoy hukumati bir necha yil davomida ichki siyosiy muammolarga bog'lanib qoladi. Gaolyang daryosi bo'yidagi jang keyingi 30 yil mobaynida xalqaro siyosiy nufuzi tushib borayotgan Lyao imperiyasining qayta kuchayganligini namoyish etgan. Endilikda Sung imperiyasi xitanlarning Shimoliy Xitoydagi ta'sirini to'la yakson qila olmasligi, o'z navbatida Lyao sulolasi ham o'z o'tmishdoshlaridan ko'ra kuchliroq hisoblanuvchi Sung sulolasini osongina bo'ysundira olmasligi ayon bo'lib qolgan edi. 979-yildan boshlab Xitoyda faqatgina ushbu ikki yirik imperiya hukmronligi to'la qaror topib, o'ziga xos "Shimol va Janub" muvozanati yuzaga kelgan. Tarixiy adabiyotlarda ma'lumot berilishicha, keyinroq 1066-yili "Lyao" sulolaviy nomining rasmiy holatda qayta muomalaga kiritilishi manbalarda "Shimoliy saroy" va "Janubiy saroy" atamalarining shakllanishiga sabab bo'lgan[21]. Ta'kidlash joizki, Xitoyning ikki imperiya boshqaruvi ostida bo'lingan holati 1279-yili Sung imperiyasini bosib olgan mo'g'ul hukmdori Xubilay qoon (1260-1294) davriga qadar saqlanib qoladi.

Lyao xoqonligi va Sung imperiyasi o'rtasida 974-yilda o'rnatilgan tinchlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlari faqatgina 5 yil davomida amalda bo'lgan. Sababi, ushbu aloqalar faqatgina bo'lajak urush oldidan raqibni chalg'itish maqsadida yo'lga qo'yilgan edi. Xitan saroyi ichki tartibni tiklash hamda harbiy sohani rivojlantirish maqsadida Xitoy

bilan vaqtinchalik tinchlikka erishishni rejalashtirgan bo'lsa, Sung imperiyasi ushbu bitimga Shimoliy Xan davlatiga qarshi urushda Lyao kuchini chetda saqlab turishdan umid qilgan. Ammo, har ikkala davlat ham maqsadiga to'la erisha olmagan. Chunki, xitanlarning 979-yildagi ilk to'qnashuvlarda mag'lub bo'lishi ularning harbiy kuchi hali yaqqol ustunlikka erishmaganligini namoyon etgan. Sung imperiyasi esa Shimoliy Xanni bosib olsa-da, Lyao neytralitetiga erishmaydi. Yuchjou ostonalarida, so'ngra Gaolyang daryosi bo'yidagi og'ir mag'lubiyat xitoyliklarning o'z rejalarini amalga oshirish uchun biroz vaqtliroq harakat boshlaganliklarini ko'rsatgan. Ammo, qayta kuchayishni boshlagan Xitan davlatining istilosi xavfi, aniqki, Janubiy imperiyani tashvishga solgan.

Shimolda esa vaziyat progressiv tarzda rivojlanib boshlaydi. 980-yilda hukmdorga qarshi navbatdagi isyonini rejalashtirgan Yelyuy Si'in qo'lga olinib, qamoqqa tashlangan. Ikki yildan so'ng u o'z tarafdorlarining isyonkor harakatlari tufayli qatl qilib yuborilgan[22]. Isyonlarning boshlanishiga ulgurmay fosh etilishi xitoyparast xitan elitasining mag'lubiyatini anglatar edi. Sung imperiyasi bilan urushdagi qiyinchiliklar xitan hukmron doiralarning xoqon atrofida birlashishiga sharoit yaratgan. Fikrimizcha, ushbu siyosiy guruhni konservativ kayfiyatlardan voz kechib, mo'tadillashgan xitan zodagonlari tashkil etgan. Ayni chog'da xitan elitasi Sung imperiyasi bilan urushning davom ettirilishini istardi.

Shimoliy Xan davlatining tugatilishi natijasida Markaziy Xitoydagi Lyao ta'siri susaygan bo'lsa, Gaolyang daryosi bo'yidagi mag'lubiyat natijasida Sung imperiyasi harbiy kuchining ham xitanlarni to'la mag'lub etish uchun yetarli emasligini namoyish etgan. Ammo, ikki tomon ham 30 yilga yaqin vaqt davomida (Sung va Lyao imperiyalari o'rtasidagi muntazam urush holati 979-1005-yillarda davom etgan) mintaqadagi gegemonlik masalasini qurol kuchi bilan hal qilishga harakat qilganlar. Bu davrda Shimol va Janub imperiyalari o'rtasida doimiy harbiy-siyosiy nizolar davom etadi. Sung imperiyasi Lyao xoqonligi ta'sirining Markaziy Xitoyga kirib kelishiga doimiy qarshilik ko'rsatgan bo'lsa-da, xitanlarning hujumlari Xitoy ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga kuchli zarba bergan.

#### ADABIYOTLAR

1. Standen N. Integration and separation: The framing of the Liao dynasty (907-1125) in Chinese sources // *Asia Major*. Third series, Vol.24, No.2 (2011). – P.174.
2. Крадин Н.Н., Ивлиев А.Л. История хитанского империи Ляо (907-1125). – М.: Наука – Вост.лит., 2014. – С.44.
3. Е Лун-ли. Цидань го чжи. История государство киданей (Пер. с китайс., введ., комм. и прил. В.С. Таскина). – М.: Наука, 1979. – С.114.
4. Lau N.-Y., Huang K.Ch. Founding and Consolidation of the Sung Dynasty under T'ai-tsu (960-976), T'ai-tsung (976-997), and Chen-tsung (997-1022) // in the: *The Cambridge History of China*. Vol.5, Part one: The Sung dynasty and its precursors, 907-1279. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P.226.
5. Twitchett D., Tietze K.-P. The Liao // in the: *The Cambridge History of China*. Vol.6, Alien regimes and border states, 907-1368. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – P.85.
6. Е Лун-ли... – С.115.
7. История великой железной империи (Дайляо гуруни судури) / пер. с маньчжурского и комм. Л.В. Тюрюминой // *История Железной империи*. – Новосибирск: Издательство института археологии и этнографии СО РАН, 2007. – С.79.
8. Е Лун-ли... – С.116.
9. Wright D.C. From war to diplomatic parity in eleventh-century China: Sung's foreign relations with Kitan Liao // *History of warfare*. Vol.33. – Leiden – Boston: Brill, 2005. – P.42.
10. Lau N.-Y., Huang K.Ch... – P.248.
11. История великой железной империи (Дайляо гуруни судури)... – С.80.
12. Wright D.C... – P.44.
13. Е Лун-ли... – С.117.
14. Кравцова М.Е. Империя Северная Сун // в кн. *История Китая с древнейших времен до начала XXI века: в 10 т. Т.4. Период Пяти династий, империя Сун, государства Ляо, Цзинь, Си Ся (907-1279)* / отв.ред. И.Ф. Попова; Ин-т восточных рукописей РАН. – М.: Наука – Вост.лит, 2016. – С.150.
15. История великой железной империи (Дайляо гуруни судури)... С.81.
16. Lau N.-Y., Huang K.Ch... – P.248.
17. Е Лун-ли... – С.118.

18. Сергеев А.Л. Историческое повествование “Семейство Ян”: факты и вымысел // Известия Восточного института Дальневосточного государственного университета. 2013, №7. – С.157.
19. Wright D.C... – P.44.
20. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Статистическое описание Китайской империи (в двух частях). – СПб.: Типография Эдуарда Праца, 1842. – С.192.
21. McGrath M. The reigns of Jen-tsung (1022–1063) and Ying-tsung (1063–1067) // in the: The Cambridge History of China. Vol.5, Part one: The Sung dynasty and its precursors, 907-1279. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P.343.
22. История великой железной империи (Дайля гуруни судури)... – С.82-83.



UDK:006.9

*Dilnoza NAZAROVA,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: dilnoza.nazarova8080@gmail.com*

*Dotsent, t.f.n F.S. Amonova taqrizi asosida*

### UY MUZEYLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI

Annotatsiya

Memorial muzeylar – muhim tarixiy voqealar, davlat, siyosat, jamoat va harbiy arboblari, fan, adabiyot va san’at namoyandalariga bag‘ishlangan muassasalardir. Vatanimiz tarixida o‘ziga xos o‘chmas iz qoldirgan mashhur ijodkorlar – shoirlar, adiblar, davlat, fan va san’at arboblari xotirasini abadiylashtirish maqsadida ularning uzoq yillar yashab ijod qilgan manzillari – uylarining muzey sifatida xalqimizga xizmat qilishi ibratli holdir. Uy-muzeylarining tashkil etilishi ulug‘ insonlarning hayoti bardavomligi, ular amalga oshirgan ishlarining xalq tafakkuridan mustahkam joy olganligi, ularga hamisha hurmat va ehtirom bilan qaragan holda e‘zozlashlari va hamisha yod etishlarining belgisi hamdir. Vatanimizda ana shunday buyuk insonlar xotirasiga bag‘ishlangan bir qancha uy-muzeylar faoliyat yurgizib kelmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Memorial, muzey, eksponat, ekspozitsiya, kolleksiya, san’at, portret.

### СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ДОМОВ-МУЗЕЕВ

Аннотация

Мемориальные музеи – учреждения, посвященные важным историческим событиям, государственным, политическим, общественным и военным деятелям, деятелям науки, литературы и искусства. В целях увековечения памяти известных творцов – поэтов, писателей, государственных деятелей, деятелей науки и искусства, - оставивших неизгладимый след в истории нашей страны, прекрасным примером является то, что их дома и адреса, которые они имеют созданные на долгие годы, служат нашему народу как музеи. Создание домов-музеев является признаком преемственности жизни великих людей, того, что созданные ими произведения занимают прочное место в народном мышлении, о них всегда чтят и вспоминают с уважением и благоговением. В нашей стране действует несколько домов-музеев, посвященных памяти таких великих людей.

**Ключевые слова:** Мемориал, музей, экспонат, экспозиция, коллекция, искусство, портрет.

### FORMATION AND DEVELOPMENT OF HOUSE MUSEUMS

Abstract

Memorial museums are institutions dedicated to important historical events, state, political, public and military figures, figures of science, literature and art. In order to perpetuate the memory of famous creators - poets, writers, figures of the state, science and art – who have left an indelible mark in the history of our country, it is a great example that their homes and addresses, which they have created for many years, serve our people as museums. The establishment of house-museums is a sign of the continuity of the life of great people, the fact that the works they did have a strong place in the people's thinking, they are always honored and remembered with respect and reverence. Several house-museums dedicated to the memory of such great people are operating in our country.

**Key words:** Memorial, museum, exhibit, exposition, collection, art, portrait.

**Kirish.** Memorial muzeylar – muhim tarixiy voqealar, davlat, siyosat, jamoat va harbiy arboblari, fan, adabiyot va san’at namoyandalariga bag‘ishlangan muassasalardir. Memorial muzeylar, odatda, davlat tomonidan muhofaza qilinayotgan yodgorlik majmualari (voqea bo‘lib o‘tgan joylar, mashhur kishilar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq uylar, Memorial muzeylar to‘plamlari va shahrik.) negizida barpo etiladi. Memorial muzeylarning tarixiy holatini to‘liq saqlagan ansambl, ilmiy rekonstruksiya qilingan, ayrim to‘plamlar asosida tashkil topadigan turlari bor. Memorial muzeylar nodir moddiy, tasviriy va yozma manbalarni saklaydi, o‘rganadi, ularni tashviq qiladi, madaniy-ma’rifiy va ilmiy ishlar olib boradi.

Vatanimiz tarixida o‘ziga xos o‘chmas iz qoldirgan mashhur ijodkorlar – shoirlar, adiblar, davlat, fan va san’at arboblari xotirasini abadiylashtirish maqsadida ularning uzoq yillar yashab ijod qilgan manzillari – uylarining muzey sifatida xalqimizga xizmat qilishi ibratli holdir. Xalqimiz azaldan o‘z ajdodlarining aqliy salohiyati, iste’dodi, ibratli umr yo‘llari bilan haqli ravishda faxrlanib kelgan. Ijodkorlarning o‘lmas asarlari, mashhur san’at asarlari

hamisha el ardog‘ida bo‘lgan. Uy-muzeylarining tashkil etilishi ulug‘ insonlarning hayoti bardavomligi, ular amalga oshirgan ishlarining xalq tafakkuridan mustahkam joy olganligi, ularga hamisha hurmat va ehtirom bilan qaragan holda e‘zozlashlari va hamisha yod etishlarining belgisi hamdir. Vatanimizda ana shunday buyuk insonlar xotirasiga bag‘ishlangan bir qancha uy-muzeylar faoliyat yurgizib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologisi.** Atoqli o‘zbek yozuvchi-shoiri, O‘zbekiston xalq artisti G‘afur G‘ulom tavalludining 70 yilligi munosabati bilan 1981 yil 16 iyunda hukumat qaroriga ko‘ra uning 1944-1966 yillarda yashab ijod etgan uyida uy muzei tashkil etilgan. Muzey rasman 1983 yilning oktabrdan o‘z faoliyatini boshlagan.

1988 yildan 1998 yilgacha muzey kolleksiyalari doimiy ravishda yangilangan va boyitilib borilgan. Muzeyning birinchi qavati uchta zaldan tashkil topgan bo‘lib, undagi eksponatlar yozuvchini kundalik hayoti va asosiy ijodiy tetapoya davri haqida hikoya qiladi. Birinchi va ikkinchi zallar G‘afur G‘ulomning bolalik va o‘smirlik chog‘larini, ilk ilhom parisida yozgan she‘r va hikoyalarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi zalda shoirning ijodiy ishlari, ko'pgina stend va yubiley materiallarni guvohi bo'lasiz. Ikkinchi qavati – uy-muzeyining memorial qismi bo'lib, mehmonxona, dam olish xonasi, kutubxona, ijod xonasi mavjud. Shoir foydalangan uy-ro'zg'or buyumlari, kutubxonada esa yozuvchining kitoblari va unga hadya etilgan asarlar saqlanadi.

Uy muzeyidagi xujjat va buyumlar O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasdiqlagan mavzuli-ekspozitsiya rejasi asosida namoyish etiladi[1].

Muzeyning memorial qismi “Bolalar xonasi” dan boshlanadi. G'afur G'ulom ko'p farzandli mehribon ota bo'lgan. Shoirning farzandlari asosan shu xonalarda ulg'ayishgan. Bu yerdagi barcha buyumlar ularga taalluqlidir.

Yotoqxonada G'afur G'ulomga va uning umr yo'ldoshi Muharram aya G'ulomovaga tegishli bo'lgan buyumlarni ko'rish mumkin. Bu xonadagi barcha buyumlar adib hayotligi davrida qanday bo'lsa, shundayligicha saqlanmoqda. Yotoqxonada yonida esa “Kichik ijodxonona” joylashgan-ki, bu yerda shoir asarlari yaratilgan. Mo'jzagina ish stolida: pero, oq kog'oz, ko'lyozmalar, kuldon, siyohdon, yon daftar, papiros, do'ppi, telefon apparati, javondagi kitoblar orasida jahon adabiyotining durdonalarini uchratish mumkin[2].

Binoning ikkinchi qavatida Shoirning asosiy ijodxonasi va kutubxonasi joylashgan. Devorda esa rassom Fazilat Saydaliyeva tomonidan ipakda tikib ishlangan G'afur G'ulom portreti osig'liq.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi G'afur G'ulom qoldirgan adabiy va ilmiy merosning katta ahamiyatini inobatga olib hamda tug'ilgan kuniga 100 yil to'lishi munosabati bilan adib uy-muzeyini ta'mirlash, yangi ekspozitsiyasini yaratish hamda obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Shu munosabat bilan 2003 yilda uy-muzeyi uchun yangi bino qurildi [3]. 2004 yilda 10 mayda G'afur G'ulomning tavalludining 101 yil to'lishi munosabati bilan yangi bino ochildi. G'afur G'ulom uy muzeyi fondi asosiy va yordamchi fondlardan iborat. Asosiy ekspozitlar bevosita G'afur G'ulomga taluqli buyumlar. 2004 yil G'afur G'ulom uy muzeyi ekspozitlari Uning yaqinlari xadyasi asosida 270 taga ko'paygan bo'lsa, 2005 yilda ularning soni 12 601 taga yetdi [4].

Abdulla Qahhor uy-muzeyi 1987 yil 6 mayda xukumat qaroriga ko'ra uning rafiqasi Kibriyo Qahhorova tashabbusi bilan adib umrining oxirgi o'n yilida yashab ijod etgan xonadonda tashkil etilgan. Muzeyning aynan Kibriyo Qahhorova tomonidan tashkil etilishi Abdulla Qahhor ijodining haqiqiy ixlosmandlari uchun katta yutuq desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Kibriyo Qahhorova nafaqat adibning turmush o'rtog'i, yaqin bir dardkashi, suhbatdoshi, kotibasi, maslahatgo'yi ham bo'lgan [5].

Muzeydan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 8 yanvarda imzolagan “O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 25 avgustdagi farmoniga binoan Abdulla Qahhorga berilgan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni guvoynomasi, farmon nusxasi o'rin olgan [6].

Muzeyda ikkita memorial xona mavjud bo'lib, bularning birinchisi mehmonxona hisoblanib undagi barcha jihozlar, mebellar, narsa-buyumlarning joylashish o'rni va ularga berilgan o'ziga xos bezak, ishlatilgan ro'zg'or buyumlari ularning hayotligida qanday bo'lgan bo'lsa, shu holicha saqlanib qolgan. Ikkinchisi memorial xona adibning ijodxonasidir. Ijodxonada saqlanadigan uch mingdan ortiq kitoblar orasida o'zbek adabiyoti durdonalari bilan bir qatorda jahon klassik yozuvchilarining asarlari ham mavjud [7].

Uy-muzeyga keluvchi ziyoratchilarda, ayniqsa, adibning bebaho kutubxonasi ajoyib taassurot qoldiradi. Bu bejiz emas, albatta. Muzey kutubxonasida besh yuzdan ortiq

jurnallar va uch mingga yaqin kitoblar saqlanib kelinmoqda. Bular yozuvchining butun umri davomida yig'gan boy adabiy xazinasidir. Adibning kutubxonasida o'zbek va fors-tojik mumtoz adabiyoti namunalari noyob nusxalari, XIX asrning ikkinchi choragida Moskva va Sankt-Petburgda chop etilgan kitoblar joy olgan. Abdulla Qahhorning ilk kitoblaridan tortib bugungi kungacha turli yillarda chiqarilgan kitoblarining nashrlari, qardosh xalqlar va chet tillarda chop etilgan asarlari, adib hayoti va ijodi haqidagi ilmiy-tanqidiy ishlar, xotiralar kutubxonaning alohida javonida saqlanadi [8].

O'zbekistonda yozuvchi nomini abadiylashtirish bilan bog'liq bir qancha ishlar amalga oshirildi. Yozuvchining 60 yillik, 80 yillik va 100 yillik yubileyi keng nishonlandi. 2007 yilning sentyabr oyida nishonlangan Abdulla Qahhorning 100 yilligi munosabati bilan uning “Saylanma”si nashrdan chiqdi, uy-muzeyi noyob ekspozitlar bilan boyitildi, qayta ta'mirlandi, O'zbekiston Milliy bog'ida adib sharafiga haykal ochildi.

Musiqqa madaniyati rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan kompozitor, SSSR xalq artisti, milliy opera asoschilaridan biri, dirijer Muxtor Ashrafiy tavalludining 70 yilligi munosabati bilan 1982 yil 11 iyunda uning 1965-1975 yillar yashab ijod etgan uyida uy-muzeyi tashkil qilingan. Muzey uning hayoti va ijodini yoritishga bag'ishlangan 6ta yekspozitsiya zaldan iborat [9].

Muzeyda M.Ashrafiyning 1930-1970 yillardagi shaxsiy arxivi saqlangan. Shu bilan birga muzeyda nodir qo'lyozmalar, rasmlar, hujjatlar, afishalar, spektakl dasturlari, kitoblar, musiqiy yozuvlar, gramplastinkalar va o'zbek musiqqa asboblari to'plami mavjud.

Muzeyda kichik ko'rgazmalar va kamer konsertlarini o'tkazadigan musiqiy zal mavjud. Bu yerda M.Ashrafiy asarlarining audio yozuvlarini tinglash mumkin [10].

Memorialning birinchi zalida M.Ashrafiyning 1912 yildan 1945 yilgacha bo'lgan dastlabki hayot-faoliyatini o'z ichiga oluvchi turli ekspozitlar joylashtirilgan. Ikkinchi va uchinchi zallarda M.Ashrafiyning tag'iz tashkilotchilik va dirijorlik faoliyati hamda Leningrad davlat konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasining operalarini ijrosi bilan bog'liq repertuar planlar taqdim etilgan [11].

To'rtinchi zalda tomoshabinlar Alisher Navoiy nomidagi DAKT kompozitori va dirijori M.Ashrafiyning 1960-1970 yillarda yaratgan opera va balet spektakllari bilan tanishadi. Beshinchi zal esa bastakor hayotining 30 yilini respublika uchun musiqachi kadrlar yetkazib berishga bag'ishlangan kompozitorning pedagogik va jamoatchilik ishlari bilan tanishtiradi [12].

Oltinchi zal kompozitorning ijodxonasi bo'lib, hozirgi kunda uning qanday o'zgartirish kiritilmadi. Kompozitorning ko'p qirrali ijodiy ish jarayonlari saqlanib qolgan. Ijodkorning maxsus kamera musiqasi uchun xona bo'lib, muzey hovlisining quyi qavatida joylashgan. Bu yerda yog'ochdan yasalgan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan o'zbek xalq musiqasi asboblari joylashgan. Bu asboblari ijodkomi hayotlik chog'ida usta A.Abdullayev tomonidan sovg'a qilingan [13].

1964 yilda Samarqandda bunyod etilgan opera teatrining tashkilotchisi bo'lgan M.Ashrafiy butun hayotini yangi musiqqa madaniyatini rivojlantirishga bag'ishladi [14]. Bugungi kunda ham kompozitor opera va balet spektakllari uchun yaratilgan ajoyib musiqalari respublika va xorijiy sahnalarda jaranglamogda.

Xalq rassomi O'rol Tansiqboyev faoliyati davomida jamoat arbobi sifatida ham qator ishlarni amalga oshirdi. Uning rang-barang asarlari jumladan, «Chirchiq vodiysi» (1940), “Qayroqqum GESi tongi”(1957) asarlar to'plami Moskva shahrida joylashgan Sharq xalqlari san'ati davlat muzeyi saqlanmogda. “Ona yer” va “Issiqko'l oqshomi” (1951) asrlari Toshkent shahrida O'zbekiston san'at muzeyi,

“Tog‘ manzarasi” (1963), “Bahorgi shudgor” (1965) asarlari Olmaota shahridagi A.Kasteyev nomidagi Qozog‘iston davlat san‘at muzeyi saqlanmoqda. Shuningdek, uning besh yuzdan ortiq asarlari Nukus shahridagi Qoraqalpoq davlat san‘at muzeyida saqlanmoqda.

Bugungi kunda uy-muzeyiga aylantirilgan xonadonda 1967 yildan boshlab O‘.Tansiqboyev va uning rafiqasi Yelezaveta Yakovlevna yashagan hozirga qadar bu jixoz va asarlar shu yerda saqlanib kelinmoqda. Rassomning mazkur uyi 1981 yil 16 yanvardan uy-muzey sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsada, ustaxona 1978 yildan yodgorlik binosi deb e‘lon qilingan.

**Tadqiqot natijalari.** O‘.Tansiqboyev memorial uy-muzeyini uning hayoti va ijodi misolida saqlash, o‘rganish va ommalashtirishga qaratilgan. Muzeyning memorial qismida rassom umrining oxirgi yetti yilini (1967-1974) o‘tkazgan va barcha buyumlar o‘z holicha saqlangan. Galereya qismi 1994 yilda rassom tavalludining 90 yilligi munosabati bilan foydalanishga topshirilgan. 2021-yildan buyon muzey O‘zbekiston Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tizimida faoliyat olib boradi [15].

Memorial uy-muzeyning asosiy fondi hujjatlar, kutubxona, fotosuratlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va etnografiya, amaliy san‘at, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlikdan iborat. Uning ustaxonasida namoyish etilayotgan albomlarda atoqli mo‘yqalam ustasining hayot va ijod yo‘li to‘g‘risidagi 2500 dan ko‘proq fotosuratlar va hujjatlar to‘plangan [16].

Hozirda uy-muzeyda O‘rol Tansiqboyevning barcha davrlarini o‘ziga qamrab oluvchi katalog ustida ish olib

borilmoqda. Bundan tashqari yosh tadqiqotchi L.Mirzabayeva rassomning ijodiy yo‘nalishi georgafiyasini o‘rganish ustida tadqiqot olib bormoqda. Muzey arxivi qayta ishlanishi muzeyda olib borilayotgan ahamiyatga molik ilmiy ishlardan biridir. Chunki bunday jarayonda, ijodkorning ijodiy va mehnat faoliyati hamda hayotiga oid o‘rganilmagan qirralari, noyob ma‘lumotlar topilishi, tadqiqotchilar uchun yangilik yaralishi tabiiy.

SSSR xalq artisti, O‘zbekistonning atoqli raqqosasi, “Bahor” nomli mashhur xalq raqsi ansamblining asoschi Mukarram Turg‘unboyeva uy-muzeyi 1990 yil 27 iyunda tashkil etilgan. Muzeyda san‘atkorning 1929 yildan 1978 yilgacha olib borgan faoliyatini targ‘ibot qiladi[21].

Bahor konsert zali binosida joylashgan Mukarram Turg‘unboyeva muzeyi 2003 yil 28 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining “bahor konsert” zalini qayta ta‘mirlashi haqidagi buyrug‘iga ko‘ra yopildi. Muzey ekspozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasi San‘at muzeyi zahirasiga saqlash uchun berildi[22].

**Xulosa.** Millatning vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ma‘naviy dunyosini boyitish, o‘z xalqi, yurti va davlatiga sodiq shaxs va mardonavor himoyachi sifatida tarbiyalashda san‘at va madaniyat koshonalari, xususan muzeylarning alohida o‘rni bor. Binobarin, ayniqsa muzeylar kishilarning dunyoqarashini kengaytiradi, tarixiy haqiqatni anglash, o‘tmish va bugunni qiyoslash va o‘z ertasini qurishda qanday aqidalarga suyanishini belgilab berishda katta rol o‘ynaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 82-ish, 26-varaq.
2. G‘afur G‘ulom uy-muzeyi. – Toshkent: Sharq. 2013. – B.4.
3. “Atoqli o‘zbek shoiri, akademik G‘afur G‘ulom tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 9 oktabrdagi 349-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/2222958?twolang=true>
4. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 238-ish, 24-varaq.
5. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 84-ish, 53-varaq
6. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 8 yanvardagi PQ-556-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/2349691>
7. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 240-ish, 34-varaq
8. Rafiqova D. Abdulla Qahhor uy-muzeyi kutubxonasi // INFOLIB. №1. 2017. – B.75.
9. Temina Yelena. «Teoreticheskiye voprosi vzaimodeystviya muzikalnix sistem ustnoy i kompozitorskoy traditsii v regione Vostoka (na materiale tvorchestva M. Ashrafi). Avtoref. diss. kandidat. iskusstv. nauk. – Moskva. 1984.
10. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 80-ish, 25-varaq
11. Temina, Yelena. Muxtor Ashrafiy muzeyi. – Toshkent. 1987. – S. 4.
12. Temina, Yelena. Muzey Muxtora Ashrafi. – Tashkent: Literaturi i iskusstva imena Gafura Gulama. 1986. – S. 6.
13. Glass Yu.I. Toshkent muzeylari: (Spravochnik-yo‘lko‘rsatkich). – Toshkent: O‘zbekiston. 1983. – B. 73.
14. Temina Yelena. Muxtor Ashrafiy olami. – Toshkent. 1986. – S. 8.
15. Bayganurov R. Muzeyu Tansikbayeva - 25 let //Novosti Uzbekistana. 27 iyulya 2018 g.
16. Glass Yu.I. Toshkent muzeylari: (Spravochnik-yo‘lko‘rsatkich). – Toshkent: O‘zbekiston. 1983. – B. 61.
17. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 85-ish, 106-varaq
18. Elmurodova Sh. Yunus Rajabiy uy-muzeyi // Oyina.uz. portal materiallari. <https://oyina.uz/kiril/article/539>
19. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 241-ish, 41-varaq.
20. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 88-ish, 29-varaq
21. O‘zbekiston milliy arxivi, M-38-fond, 1-ro‘yxat, 242-ish, 9-varaq
22. Muzey Mukarram Turgunbayevoy // 21 maya 2015 goda. <http://www.muzei-tashkenta.narod.ru/Mukarram-Turgunbaeva2.htm>



UDK: 331.226:572(575. 1)

*Sharofiddin PARMONOV,*  
*O'zMU magistranti*  
*E-mail: parmonovsharofiddin96@gmail.com*

*t.f.n.dots. N.Buranova taqrizi asosida*

### SHAKHRISABZ BEKLIK DURING THE PERIOD OF AMIR HAYDAR AND AMIR NASRULLO.

Annotation

In this article is illuminated the period from the beginning of the XIX to the 60s of the XIX century that is, the emirs of Bukhara the failure of Shahrhisabz beklilik to the emirate of Bukhara during the reign of Amir Haydar causes of wars in the middle, upheavals by Amir Haydar Shahrhisabz solo book titles and ranks given to the picipials and the ascendancy of Amir Nasrullah and the princes of Shahrhisabz, results of the 30-year war between, Amir Nasrullah military campaigns military reforms Shahrhisabz beklilik's marriage to Kenagas Ayim, the course of political processes.

**Key words:** Emirate of Bukhara, Shahrhisabz beggi, Kitob beggi, mangits, kenagas, barlos, political relations

### ШАХРИСАБЗ-БЕЙ ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ХАЙДАРА И АМИРА НАСРУЛЛЫ

Аннотация

В данной статье освещаются исторические события в период начала XIX века по 60-е годы, то есть эмиров Бухары: причины неподчинения бекства Шахрисабза Бухарскому эмирату в период правления Амира Хайдара, войны и восстания; титулы и должности, данный Шахрисабзкому, Яккабогскому и Китабскому бекствам со стороны Амира Хайдара; восшествие на престол Амира Насруллоха, итоги 30-летней войны с беями Шахрисабза, военные походы Амира Насруллы, военные реформы, подчинение Шахрисабзского бекства, женитьба на Кенасойим и другие политические процессы.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Шахрисабзское бекство, Китаб бекство, мангыты, кенасасы, барлосы политические связи.

### SHAHRSABZ BEKLIKI AMIR HAYDAR VA AMIR NASRULLO DAVRIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr boshlaridan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr ya'ni Buxoro amirlari: Amir Haydar davrida Shahrhisabz bekliligining Buxoro amirligiga bo'ysunmasligi sabablari, o'rtadagi urushlar, qo'zg'olonlar, Amir Haydar tomonidan Shahrhisabz Yakkabog' Kitob bekliliklariga berilgan unvon va mansablar va Amir Nasrullohning taxtga chiqishi va Shahrhisabz beklari o'rtasidagi 30 yillik urush natijalari, Amir Nasrullohning harbiy yurushlari harbiy islohotlari Shahrhisabz bekliliging bo'ysondirishi Kenagas oyimga uylanishi siyosiy jarayonlarni kechishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Shahrhisabz bekligi, Kitob bekligi, mang'itlar, kenagaslar, barloslar siyosiy aloqalar.

**Kirish.** Bugungi kunda yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, inson manfaati va erkinliklarini ta'minlash maqsadida keng miqyosli islohotlar izchil davom ettirilmoqda. “Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim”[1]. Tarix ilmi umuminsoniy qadriyatlar ichida eng asosiysidir. Vatanimiz tarixi va madaniyatida katta o'rin tutuvchi Shayboniyxon hukmronligi davrini o'rganish, o'sha davr voqea-hodisalarini, davlat negizini tashkil etgan boshqaruv tizimini haqqoniy o'rganish bugungi tarix fanining dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

O'zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy tumanlaridan biri Shahrhisabzda XIX asrda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari o'rganish tarix fanida nisbatan tadqiq qilinmagan masalalar sirasiga kiradi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, «Xech shubhasiz, Qashqadaryo vohasining naqadar katta tarixiy va madaniy me'rosiga ega ekani haqida gapirishimiz albatta o'rindidir. Bugun bu haqiqatni nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo tan olmoqda». Ushbu davrda Shahrhisabz bekligi Buxoro amirligining iqtisodiy, siyosiy hayotida katta o'rin tutgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada XIX asrboshlaridan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr


bag'ishlangan tadqiqotlarni uch guruhga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhni Rossiya impyriyasi harbiylari, sayyohlar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari tomonidan yozilgan estaliklar, XIX-XX asr boshlarida chop etilgan turli adabiyotlar tashkil qiladi. Ikkinchi guruhga sovet hukmronligi davrida mavzuga oid chop etilgan adabiyotlar kiradi. Uchinchi guruh mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar, amalga oshirilgan tadqiqotlardan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzu tarixshunosligiga oid keyingi davr tadqiqotlarida, xususan, A.X.Hamroyev, O.D.Chexovich, M.A.Abduraimov, A.Madjlisovlarning nashrlarida yozma manbalar va arxiv xujjatlari taxlil qilinib, XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligi bekliliklarining yer-suv munosabatlari T.G.Tuxtametov, B.I.Iskandarov, A.R.Muhammadjonov, T.Ne'matov, A.M.Aminov, N.A.Xalifin, N.A.Kislyakov, I.K.Xidoyatov, B.X.Karmishyeva, G.Yu.Astanova va boshqa olimlarning asarlarida esa iqtisodiy taraqqiyot darajasi, Rossiya—Buxoro munosabatlari, savdo iqtisodiy aloqalar, xo'jalik turlari, etnik tarkibi, aholining voha xududlari bo'ylab joylashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlari tarixining turli jihatlarini o'z aksini topgan. 1942 yilda M.Ye. Masson va G.A.Pugachenkovalar Shahrhisabz va Kitob tarixiy topografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. 1948 yilda esa O.A.Suxareva Shahrhisabzda etnografik tadqiqotlar olib borgan. Qashqadaryo vohasidagi arxeologik

tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan keng ko'lamli o'rganilib, 1963 yilda ToshDUning Kesh arxeologiktopografik ekspeditsiyasi (KATE) tashkil etiladi. Shu o'rinda M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova, O.A.Suxareva,

#### Tahlil va natija.

V.L.Voronina, M.K.Raximov, Ye.M.Pyeshereva, L.Yu.Mankovskaya, T.Abdullayev, N.I.Krashennikova, G.Ya.Dryesvyanskaya Z.I.Umanova va boshqalarning bu davrga oid tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.



#### Buxoro amirlari hukmronlik yillarida beklilik qilgan kenagaslar

Mang'it amirlari	Hukmronlik yillari	Shahrisabz beklari
Amir Haydar	(1800-1826)	Niyozali- Sodiqboy
Amir Husayn	(1826)	Doniyo otaliq
Amir Umarxon	(1826)	Doniyo otaliq
Amir Nasrulloh	(1827-1860)	Doniyo otaliq- Xo'jaquli parvonachi- Ashirqulibiy- Iskandarbiy- Olloyorbek

**Amir Haydar** (1778-1826) mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri. Uning hukmronlik yillarida mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Miyonkol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'z boshimchalik qila boshlaganlar. Amir Haydar davrida (1800-1826) Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Shu davrda Shahrisabzda Niyozali hokim bo'lib, garchi Buxoro amirligiga tobe bo'lsada mustaqillik uchun harakatlar qilib turgan. Oqibatda Amir Haydar Shahrisabz bekligining mustaqil siyosat yuritishi bilan murosa qilishga majbur bo'ladi. Buxoroning mintaqadagi siyosiy ta'sirini kamaytirishga intilib kelgan Qo'qon hukmdorlari ham amirlikdagi separatistik kuchlar bilan hamkorlik qilishga intilib kelardi. Xususan XIX asr boshlarida Shahrisabz bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy aloqalar mustahkamlandi. Shahrisabz hokimi Niyozali Buxoro amirligi bilan bo'lgan urushda yengilgach, Qo'qon xoni Umarxon huzuridan panoh topgani [2] ham bu munosabatlarning mohiyatidan darak berib turibdi. Shahrisabz-Qo'qon aloqalari Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy raqobatning kuchayishiga olib kelardi.

Niyozali xam olamdan utgach, uning o'rniga o'g'li Sodiqboy Shahrisabz hokimi bo'ladi, Amir Haydar kenagaslar bilan aloqani mustahkam ushlab turish uchun Sodikboyning qizini nikohiga so'raydi. Lekin bu nikoh uzoq davom etmaydi. Shahvatparast amir Haydar Shahrisabz hokimi Sodiqboyning qizini taloq qo'yadi. Bu amirning hayotida bot-bot takrorlanadigan voqea edi. Bu ish kenagaslarni g'azabga mindirib, xalqning izzat-nafsigaga tegadi va ular amirga bo'ysunmaslik yo'lini tutadilar [3].

Keyinchalik, Amir Haydar Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' bekliliklariga nisbatan siyosiy murosa yo'lini tanladi, mahalliy beklarga odatga, saroy amaldorlariga beriladigan unvonlar tortiq etildi. Masalan Yakkabog' hokimlariga Buxoroning 15 pog'onali oliy amallar ierarxiyasida 7-o'rinda turgan To'qsoba unvoni, Shahrisabz beklariga esa eng oliy Otaliq unvoni berilgan edi[4]. Amir

Haydar hukmronligining dastlabki yillarida Qo'qon xonligi bilan bo'lgan urushda ko'rsatgan yordami uchun Shahrisabz viloyatining mahalliy hokimi Doniyor valloma Niyozali o'g'liga (Doniyo otaliqqa) viloyatni mulk sifatida taqdim etgan[5]. Natijada, Shahrisabz vohasi 1856-yilga qadar yarim mustaqil boshqaruvni o'z qo'lida saqlab qolgan edi. Lekin Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy nizolarni butunlay bartaraf etishga Buxoro amirlari siyosiy jihatdan ojiz bo'lib keldilar. 1821-1825-yillarda Miyonqolda bo'lib o'tgan xitoy qipchoqlar qo'zg'oloni vaqtida Shahrisabzliklar qo'zg'olonchilar tarafida bo'lganligi bu siyosiy nizolarni tub ildizlari chuqur ekanligini ko'rsatib berdi.

Nasrulloh otasi Amir Haydar hamda birodarlari Husayn va Umarxonlar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafoti (1826 yil 6-oktyabr)dan so'ng hokimiyat uchun kechgan keskin kurashlarda birodarlari Amir Husayn (1797-1826) va Amir Umarxon (1810-1829) hamda boshqa ukalari ustidan g'olib kelib, 1827 yil aprel oyining boshlarida 21 yoshida Buxoro amirligi taxtiga o'tiradi. Tarixchi olim Mirzo Abdulazim Somiyning fikricha, Buxoro amirlig taxtini egallashda Nasrulloxonga otasining vaziri bo'lgan Muhammad Hakimbiy qushbegi katta yordam ko'rsatgan[6]. U Buxoroni qamal qilib turgan Nasrulloxon qoshinlariga shaxar darvozasini ochib beradi. Buxoro amirlari ichida o'z shafqatsizligi bilan mashhur bo'lgan, "Qassob Amir nomi bilan tarixda qolgan Amir Nasrullo (1806-1860) o'z hukmronligi davrida (1827-1860) Shahrisabz vohasini qayta tobe etish uchun muntazam hujumlar uyushtirib turdi. Bu davrda Shahrisabz yaqinidagi bir nechta qishloqlarda mudofaa qo'rg'onlari barpo etildi va ularga Buxoro sarbozlarini joylashtirildi. Shahrisabz va Kitobga uyushtirilib turiladigan hujumlarda bu qo'rg'onlar tayanch istehkom vazifasini bajargan. Shu sababli ham shahrisabzliklar bu qo'rg'onlarga tez-tez hujum qilib, ularni buzib tashlashga intilganlar. Amir Nasrulloh Buxoro taxtiga o'tirganining uchinchi yili, ya'ni 1828-yilda Shahrisabzga qarab katta qo'shin tortadi, maqsad Chiroqchi qo'rg'onini Shahrisabzdan ayirib olish lozim bo'lgan.

Bu xabarni eshitib Shaxrisabz begi lashkarlarni jam qilib, Chiroqchi shahrida Amir Nasrullohning yo'lini to'sadi.

Doniyol otaliq odam jo'natib ukasi Kitob begi Fozilbekni xam lashkari bilan Chiroqchiga chaqirib olib, uch kun muhorama qiladi. Natija chiqara olmagach, sulh tuzishib har ikki qo'shin o'z yurtiga qaytib ketadi.

Demak, 1828 yilda Kitobda Doniyolbek otaliqning ukasi Fozilbek bek bo'lgan. 1829-yili katta qo'shin bilan Shahrisabz ustiga yurish qiladi. Bu gal Donyol otaliq Nasrullaxon qo'shinlarini Kitob chegarasidagi Beshterak mavzesida qarshi oladi. Ularning orasida qattiq jang bo'ladi. Bu manzil Kitob shahridan bir yarim tosh beri deb ko'rsatiladi. Nasrullaxon ko'p jang qilgandan so'ng Pistaxon qal'asini to'pga tutadi. U paytda Donyol otaliq Kitobdan yarim tosh beridagi saydilar mozori mavzeyini lashkargoh qilib jangni borishini kuzatib turadi, jang qizib turgan bir vaqtda o'sha vaqtda Kitob hokimi bo'lgan Do'st Muhammad Dodho Donyol otaliqdan dilgir bo'lib Amir Nasrullonning oldiga borib mulozamatlik qiladi. Bu fitna qimmatga tushadi. Do'st Muhammad Dodho ko'radiki jang shu zaylda kechsa kenagaslar xonadoni oyoq osti bo'lib uning zarari o'ziga ham tegadi. Amir Nasrullodan kutilgan yaxshilik chiqmasligiga ishonib yana Donyol otaliq huzuriga qaytadi. Beklik kuchlarini qayta birlashganini ko'rib Amir Nasrullo bir qancha qishloqlarni talab otaliqqa sulh taklif qiladi. Otaliq ham sulhga rozi bo'lib yovlashgan ikki qo'shin ikki tomonga qaytadi[7].

Amir Nasrullo 1831-yili yana kuch yig'ib bekklik ustiga keladi. Bu gal u bekkliklar tevaragidagi kichik qo'rg'onlarni o'ziga bo'ysindirishni maqul ko'radi. Bu yurishda Amir Nasrullo Duoba, Obikanda qo'rg'onlari va Temirchi mavzesini egallaydi. Vaziyat keskinlashganini hisobga olib Donyol otaliq elchi yuborib sulh tuzish taklifini qo'yadi. Amir Nasrullo sulhga rozi bo'lib yovlashgan ikki qo'shin ikki tomonga qaytadi.

1835-yilda Amir Nasrullo kuchayib Shahrisabz bekkligiga yurish qilish maqsadida Nurota yo'li bilan Samarqandga keladi. Ular tog' yo'li orqali Omonqo'tonning Qizil To'riq mavzeyi orqali Shohak va Toytemirdan tushib Rajongizga qo'nadi. (Rajongiz – Varganza qishlog'i, Shanbe qo'rg'onidan ko'chirilgan buxoroliklar bo'lib, ular Shahrisabz bekkligini tan olmay to'lovlarini Buxoroga to'lagan) Ertasiga bu mavzedan ko'chib Xayrobod qishlog'iga joylashadilar. Xayrobod qishlog'i Kitobning kunchiqar sharqiy qismida bo'lib tong otar vaqtda qo'shin orqa qismi bilan quyoshga qarasa jang qilish oson kechishini hisobga olgan. Bu yurishdan ham Amir Nasrullo kerakli natija chiqarolmay Buxoroga qaytadi. 1838-yilda Ingilizlar Afg'onistonga bostirib kiradi. Afg'oniston amiri Do'st Muhammadxon qochib panox istab yaqinlari bilan Buxoro Amiri Nasrullo huzuriga boradi. Amir Nasrullo Do'st Muhammadxon dan yuz o'giradi. Afg'onistonning sobiq amiri Do'st Muhammadxon odamlari bilan Shahrisabzga keladi. Doniyol otaliq voqealardan xabardor bo'lsa ham Amir Nasrullodan cho'chimay Do'st Muhammadxonni qabul qilib, Kitob bekkligidan ajratilgan manzilga mehmon qilishadi. Do'st Muhammadxon yurtiga qaytib 1843- yilda yana Afg'oniston taxtiga o'tiradi. Shahrisabz begi Doniyol otaliq 1840-yilda olamdan o'tadi. U olamdan o'tar vaqtda kenagaslarni yakdil bo'lishga chaqiradi va Bobododxoga Kitobni Xo'jaquli parvonachiga Shahrisabzni farzandi Iskandarbek nomidan idora qilishni nasixat qiladi. Doniyol otaliq vafot etganda Iskandarbek 12 yoshda qizi Fotima (Kenagasxonim) esa 7 yoshda bo'lgan.

Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at tavorix" asarida 1840-yip Doniyolbiy Otaliq vafotidan so'ng uning vasiyatiga ko'ra Oq saroy imorati ostida Xo'jaqulibiy parvonachi Shahrisabz amiri mansabiga o'tqazilgan, Kitobga esa jiyani ukasi Do'st Muhammadning o'g'li Bobobek dodxoh hokim qilib ta'yinlanadilar. Ko'p o'tmasdan akakular o'rtasida Shahrisabzda o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kurash boshlanadi. 1846-yilda Shahrisabzga 6 yil hokimlik

qilgach, Xo'jaqulbiy vafot etadi. Uning vafotidan keyin Shahrisabzga o'g'li Ashirqulibiy, Kitobga esa Doniyol otaliqning o'g'li Iskandarbiy hokim bo'lib qolishadi. Tez orada Iskandarbiy Shahrisabzni Ashirqulibiy qo'lidan tortib oladi. Iskandarbiy o'z otasi singari Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik siyosatini olib boradi. Uning bu siyosatini separatistik kayfiyatga moyil ayrim hokimlar va saroy amaldorlari qo'llab-quvvatlaydi. Sababi Buxoro amirligining kuchsizlanishi ularning ayni muddaosi edi. Buning ustiga, Shahrisabz va Kitobdagi markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik mayllari amirlikning Hisor va Balx viloyatlariga ham tarqalib ulguradi.

Xullas, Shahrisabz viloyati amirlik hududidagi muxolifat markaziga aylanib, viloyat hokimi Iskandar vallamiyning separatistik kayfiyati Buxoro davlatini birlashtirish va markazlashtirish uchun izchil siyosat yuritayotgan Amir Nasrullohning niyatlariga to'g'anoq bo'lgan. Amir Nasrullohning kenagaslarga qarshi olib borgan siyosati natijasida shu urug'ga mansub bo'lgan aholining bir qismi boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lgan. Iskandar vallamiyning separatistik harakatlarini hatto qo'shni Qo'qon xonligi faol qo'llab-quvvatlab turgan. Qo'qon xonligi hukmdorlari Buxoro amirligi kuchsizlanib, u mustaqil bir nechta mulklarga bo'linib ketishi tarafdori bo'lishgan.

Iskandar vallamiy hokimlik qilgan yillar ham Amir Nasrullohning Shahrisabz ustiga ko'plab yurishlari davom etishi bilan xarakterlanadi. Amir Nasrulloh 20 yil mobaynida Shahrisabz ustiga 32 marta harbiy yurish qilib, nihoyat, 1856-yili Shahrisabzni uzil-kesil egallagan. Ba'zi bir manbalarda, Amir Nasrulloh Shahrisabzni egallashda o'zining piri Shayx Muhammad Husayn Alaviy Buxoriyning ruhi madadiga tayangan deyiladi.

Shahrisabzga qilingan harbiy yurishlar ichida 1827, 1844, 1856-yillardagi yurishlar alohida ajralib turadi. Bu yurishlar natijasida Shahrisabz 1856-yili uzil-kesil Buxoroga qayta bo'ysundirilgan. Buxoro amirligini Mang'itlar o'zbek sulolasi rasmiy ravishda boshqarishga kirishgandan so'ng roppa-rosa 100 yil o'tgach, Shahrisabz vohasi amirlik hududining ajralmas qismi bo'lib qolgan.

Shahrisabz markaziy hokimiyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida va Shahrisabz kenagaslari o'rtasida katta nufuzga ega vallamiylar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatib, ushbu qarindoshlik rishtalarini Shahrisabzni o'z davlatining ajralmas qismi sifatida ushlab turish maqsadida mahalliy hokim Iskandar Vallomaning (valine'matning) Yoqubbiyga turmushga chiqqan singlisi Kenagas oyinga uylangan. Biroq Amir Nasrullohning bu tavakkalchiligi keyinchalik o'ziga qimmatga tushgan. Pirovardida u o'zining yangi qarindoshlari fitnasi natijasida halok bo'lgan.

Amir Nasrulloh endi qaynog'asi bo'lmish Iskandar vallamiyni butun oilasi a'zolari va yaqinlari bilan birga Buxoroga jo'natgan. Iskandar vallamiyga Buxoro shahrida kattakon hovli va ikki bog' tortiq qilgan hamda uni Qorako'l tumaniga hokim qilib tayinlagan. Yoqubbiyni esa Chorjo'y viloyatiga badarg'a qildirgan.

Amir Nasrulloh Shahrisabz vohasini qo'lga kiritgandan so'ng Shahrisabzga Abduholiqbek (keyinchalik Olloyorbek), Kitobga Olloyorbek (keyinchalik Hamidxo'ja va Fayzibiy), Yakkabog'ga Homidxo'ja kabi beklar hokim qilib tayinlanishadi. Bu davrda Buxoro va Shahrisabz munosabatlarida harbiy omillar yetakchi o'rin tutgani bois, Amir Nasrullohning harbiy islohotlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur.

Amir Nasrullo o'z hokimiyatini mustahkamlash, yirik o'zbek urug'lari boshliqlarining siyosiy mavqegini pasaytirish uchun Buxoro amirlari orasida birinchi bo'lib piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to'pchilardan iborat muntazam qo'shin tuzdi. Qo'shin tuzilgan dastlabki davrda sarbozlar 800

kishini, to'pchilar esa 250 kishidan ortig'roq bo'lgan. Ular uchun mahsus kiyim-bosh ham joriy qilindi. Bu masalaning ahamiyatli jihati shundaki, Buxoroning muntazam qo'shini tarkibini Xiva xonligi orqali Buxoroga keltirilgan rus va fors qullari tashkil etgan. Bu ham Amir Nasrullohning yirik o'zbek qabilalari etakchilari orasida siyosiy tayanchi kam bo'lganligidan dalolat beradi. Amir Nasrullohning davlat rahbari sifatidagi salohiyati, uning axloqi masalasida Axmad Donish xam keskin tanqidiy fikrlar bildirib o'tgani ma'lum[8]. Bu ma'lumotlarga Nasrulloh hukmronligi davrida amirlikka tashrif buyurgan xorijlik sayyohlarning fikrlari hamohangdir. ma'lumki, Amir Nasrulloh hukmronligi yillarida amirlikka ingliz, rus elchilari ko'plab tashrif buyurgan. Ular ichida ingliz zobiti A. Berns, rus josuslari, sayyohlari P.I. Demezov, Vitkevich, N. Xanikov va boshqalar Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, markaziy hukumat va amaldorlar faoliyati, amirlikning ma'muriy tizimi masalalariga keng to'xtalib o'tganlar[9].

Ularning Amir Nasrullohga hukmdor sifatida bergan baholari ham e'tiborlidir. Xususan, 1835 yilda Buxoroda bo'lgan rus sayyohi Vitkevich amir Nasrullohning faoliyatiga to'xtalib, uning nomigagina amir yoki podsho ekanligini, asosiy davlat ishlari qo'shbegi Hakimbiy tomonidan boshqarilishini qayd etadi. Hakimbiy u uddaburon, birorta ham ishni amirgacha yetkazmasdan o'zi bajaradigan, davlatni boshqarishda nimani xohlasa shuni qiladigan, amirlikdagi eng davlatmand, xattoki amirdan ham boy va amir qashshilik qila olmaydigan kishi sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni butun umrini O'rta Osiyo haqida ma'lumot to'plashga bag'ishlagan G.O. Gens ham qo'llab-quvvatlagan holda, buxoroliklar amir va uning boshqaruvidan norozi ekanligi, soliqlar ikki martalab yig'ilayotganligi, davlat boshqaruvi haqida bosh qotirish amir Nasrullohning xayoliga ham kemayotganligini 1840 yilning yozida Buxorodan jo'nashi oldidan qayd qilib o'tgan. G.O. Gensning amir haqidagi yuqoridagi xulosasi bayon qilingan paytdan keyin ham Amir Nasrulloh yana yigirma yil mamlakatni boshqarib, har yili Shahrisabz va Qo'qon ustiga yurishlar uyushtirib turdi. Lekin Nasrullosh Buxoro taxtiga o'tirgan yili durryoga kelgan mashhur tarixchi va davlat arbobi Ahmad Donishning yozishicha Amir Nasrulloh, vazmin va qo'rqmas, qattiqo'l va zukko hukmdor edi. U o'z hukmronligi davrida el va ulusda fitna chitsarishda nom qozongan, markaziy hokimiyatga qarshi turgan qabilalarning turli isyonlarida qatnashgan yoki ilgari amirlarga nisbatan ko'rnamaklik qilganlarning barchasini jazoladi va yo'q qildi. O'z tarafdorlariga esa ko'p yaxshiliklar qildi va mehribonlik ko'rsatdi. Uning mulklari kengaygan. Qo'qondan Shahrisabzga bo'lgan butun mamlakatlar unga bo'ysunga. O'z davrida ayrim mang'it amirlarning kaltabin siyosatini keskin tanqid qilgan mang'itlar sulolasi to'g'risida tarixiy risola yozib, ushbu risolasida Doniyolbiy otaliqdan boshlab to Amir Abdulohatgacha bo'lan 8 ta mang'it amirlar to'g'risida batafsil so'z yuritgan, rost so'z va haqiqatni har qanday sharoitda har qanday shaxsga nisbatan ayta olgan, adolatparvarlik g'oyalari va xolisligi tamoyiliga o'z tarixiy

asarlarida ham qat'iy amal qilgan Ahmad Donishning Amir Nasrulloh haqidagi mulohazalari bugungi kitobxonni chuqur o'ziga qaytaradi, zero, Ahmad Donishning bu so'zlari ko'pchilik tomonidan "qonxo'r va shafqatsiz" deb balolangan va hanuz baholanayotgan unga yopishtirilgan turli sifatlashlar hamda tavhiq la'natdan hamon qutulolmayotgan Amir Nasrulloh shaxsiyatini o'rganish va tushinishda o'ziga xos ochqich vazifasini o'taydi.

Muammoga shu jihatdan yondashganda Amir Nasrullohdek ziddiyatli va fojiali shaxs xarakterini tushunish va anglashda birmuncha osonlashadi. Amir Nasrullosh o'zining 33,5 yillik hukmronligi davrida mang'it amirlari o'rtasida eng ko'p saltanat suragan hukmdor hisoblanadi davlat hokimiyatni mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtiradi[10].

**Xulosa va takliflar.** "O'z tarixini bilmagan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"[11].

Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa tarzida shuni aytish mumkin, Shahrisabz bekligi bu davrda (XIX asrning boshidan - XIX asrning 60-yillarigacha) Buxoro amirligi va qo'shni hududlardagi siyosiy voqealar ta'siridan chetda qolmadi va ko'p hollarda ichki siyosiy nizolarga faol aralashib turdi. Mang'it amirlari davrida, ayniqsa, amir Nasrulloh hokimiyat tepasiga kelgach, o'z qo'l ostidagi viloyatlarni shafqatsiz ravishda talash, urug'lar o'rtasidagi nizolarni atayin keskinlashtirish, yurt olish siyosatini yurgizadi. Voqealarning bu tarzdagi rivoji, albatga, vohaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, Shahrisabz bekligi XVII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligining muhim tarkibiy qismi sifatida davlatning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki iqtisodiy hayoti rivojida ham muhim o'rin tutgan.

XIX asrda Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasida juda ko'plab urushlar bo'lib o'tganligi ko'rib chiqdik lekin bu urushlar natijasiz tugab Shahrisabz bekligi o'zining mustaqilligini saqlab qolgan. Buxoro amirlari har safar yurish qilganda beklilik atrofidagi qishloqlarni talar va vayron qilar edi, lekin ular beklilik markaziga kirolgan emas.

Umuman olganda, markaziy hokimiyat va Shahrisabz bekligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, XIX asrda soliqlar miqdorining oshib ketishi, Buxoro amirlarining voha axolisiga nisbatan zo'ravonlik siyosati, mahalliy bekliliklarga amir qarindoshlari va taxt vorislarini noib etib tayinlash an'anasi aholining jiddiy noroziligi va g'alayonlariga sabab bo'lgan.

Turli yillarda Shahrisabz beklari amirga soliqlar to'lashdan bosh tortib, mahalliy yo'lbochchilarga tayangan holda amirdan mustaqil bo'lishga intilib kelganlar. Shu sababdan davlat mansabida turgan ayrim Buxoro tarixchilarining asarlarida Shahrisabz kenagaslari "isyonchilar" sifatida ta'riflanib, tanqidga uchragan. Bunday yondashuv xolis emas va mazkur asarlarda turli davrlarda vujudga kelgan norozilik sabablari yetarli darajada yoritilmagan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 22 декабрь куни Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
2. Ахмедов Б.А. Узбекистон тарихи манбаларда. - Тошкент, 2001. - Б. 118
3. Бердиев А. Ҳақиқатга Садқа Бош. Тошкент. 2005 Б. 29.
4. Бейсембиев Т.К. Малые владения в Мавараннахре: Нур-ата, Ургут, Яккабаг (XIII-XIX вв.) И Иран-намэ, Научный востоковедческий журнал. - Алматы, 2007. - N2 1-2. - С. 143-144.
5. Кун А. Очерки Шагрисебзкаго бекства. - С.35.
6. Rajabov Q. K. Amir Nasrulloh Bahodurxon yoxud «xoni shahid». Buxoro: Buxoro mavjlari. Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2011. B.26-29
7. Мухаммадхакимхон тура. Мунтахаб ат-таворих / Форс-тожик тилидан тарж., мукаддима, изоҳлар ва курсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. - Б. 329

8. Ахмад Дониш. История мангитской династии / Пер. предис. прим. И.А.Наджаповой. - Душанбе: Дониш, 1967. -с. 27.
9. Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. фан. номзоди., дисс. автореф. - Тошкент: УзМУ, 2011. -27 б.;
10. Мирза Абдал-азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангьтских государей) Изд. текста, предисл. и примеч. Л.М.Епифановой. - М.: Изд-во вост. лит., 1962. - 179 с



UDK:72.025.4:726

*Jasur SAVRIEV,*  
*Navoiy innovatsiyalar instituti o'qituvchisi, (PhD)*

*BuxDU professori X.X.To'rayev taqrizi asosida*

### QOSIM SHAYX AZIZON YODGORLIK MAJMUASI QURILISHI TARIXIGA AYRIM CHIZGILAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qosim Shayx Azizon yodgorlik majmuasi qurilish tarixi va O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy qadamjolar va turistik markazlar ta'miriga qaratilgan e'tibor tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yodgorlik, majmua, tarix, Karmana, tarixiy qadamjolar.

### SOME LINES ON THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF KASIM SHEIKH AZIZON MEMORIAL COMPLEX

Abstract

This article analyzes the construction history of Qasim Sheikh Azizon memorial complex and the attention paid to the restoration of historical landmarks and tourist centers after the independence of Uzbekistan.

**Key words:** Monument, complex, history, Karmana, historical sites

### НЕСКОЛЬКО СТРОК ИЗ ИСТОРИИ СТРОИТЕЛЬСТВА МЕМОРИАЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАСЫМ ШЕЙХА АЗИЗОНА

Абстракт

В данной статье анализируется история строительства мемориального комплекса Касим Шейх Азизон и то внимание, которое уделялось восстановлению исторических памятников и туристических центров после обретения Узбекистаном независимости.

**Ключевые слова:** Памятник, комплекс, история, Кармана, исторические места

**Kirish.** O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, bu esa madaniy xoslikni chuqur anglashga, shu bilan birga, boshqa madaniyatlarga ham hurmat ehtrom shakllantirishga ko'mak beradi. Madaniy merosning buyuk mohiyatini nazarda tutgan holda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev madaniyatimizni osori atiqalarimizni, muqaddas qadamjolarimizni, ziyoratgohlar va qabristonlarni, ko'hna yodgorliklarimizni qayta tiklashga doim katta e'tibor qaratib kelmoqda. U kishining tashabbuslari bilan ma'naviy olamimizda buyuk o'zgarishlar sodir bo'layotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Sovet Ittifoqi zamonida asarlari u yoqda tursin, hatto nomlari qatag'onga uchragan allomalarimiz, avliyolarimiz sha'ni - shavkati qayta tiklanib nomlari oqlanib, mo'tabar ziyoratgohlari obod etildi. Bugungi kunda Respublikamizda 8400 dan ortiq tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilish ro'yxatiga kiritilgan[12]. "O'zbekistonda masjidlar soni 2021 yil 21 dekabr holatida 2084 taga etdi", - deya xabar beradi O'zbekiston Respublikasi musulmonlari huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita. O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayrim, ayniqsa, chekka hududlardagi me'moriy obidalarining qarovsiz holatda ekani haqida aholi tomonidan e'tirozlar bo'lgan. Obidalarining e'tibordan chetda qolishiga esa ularning moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastriga kiritilmaganligi sabab bo'lib kelgan. 2018-2019 yillarda respublikamizdagi barcha moddiy madaniy meros ob'ektlari to'liq xatlovdan o'tkazilib, ularning hozirgi kundagi holatlari o'rganib chiqildi.

**Asosiy qism.** Xatlov natijalari umumlashtirilgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish

to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastrini yuritish tartibi tug'risida"gi Nizomiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent Shahri bo'yicha "Moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastriga kiritilgan moddiy madaniy ob'ektlarining yangilangan ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqlari qabul qilindi.

Ushbu buyruqlarga asosan, Respublikamizdagi barcha tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlarni moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastriga kiritilib, ob'ektlarining yangilangan ro'yxati tasdiqlandi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad hududlardagi mavjud moddiy madaniy meros ob'ektlarini qayta hatlovdan o'tkazish orqali tarixiy obidalarini qayta tiklash, qadimiy qadamjolarining holatini yaxshilash, yo'qolib ketish arafasida turgan ob'ektlarni saqlab qolish va buning natijasida Respublikamizda turizm salohiyatini yanada yaxshilashga erishishdan iborat.

Madaniyat vazirining buyrug'i bilan moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastriga kiritilgan ob'ektlar "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun bilan muhofaza etiladi.

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Navoiy viloyati - mamlakatimizning eng kenja viloyati bo'lsa-da, uning tarixi asrlarga tutashib ketgan. Samarqand, Buxoro oralig'idagi qadimiy bu muzofotda ne-ne buyuk voqealar yuz bermadi. Raboti Malik karvonsaroyi va Sardobasining o'zi qanchalab tarixiy voqealarning guvohi bo'lgan. Hududimizdan buyuk sarkarda Sohbiqiron Amir

Temur, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo, Buyuk Xorazmshohlar avlodi Sulton Alouddin Jalolliddin Manguberdilardan ot uynatib o'tgan. Tariqat pirlaridan Xojai Jahon - Abduxoliq G'ijduvoniylar hazratlari, hazrat Bahouddin Naqshbandiylar xoki poylari muborak etgan bu tuproqni. Alisher Navoiy hazratlari Hirotdan Samarqandga, qadimiy ko'hna Buxoro orqali yo'l olib, ilm izlab kelayotganida Sardobaning salqin suvidan totgan bo'lsa, ne ajab, va ayni haqiqat.

Xatirchidagi Gadoy Selkin, Karmanadagi Shayx Nuriddin, Qosim Shayx Azizon, Mir Said Bahrom, Mavlono Orif Deggaroniy, Qiziltepa tumanidagi Xo'ja Hasan Andoqiy, Boyazid Bistomiy va boshqa ko'plab ziyoratgohlar, maqbara masjidlar, xonaqohu rabotlar uzoq o'tmiShimizdan hikoyatlar so'ylaydi.

XVI asr ikkinchi yarmida, Buxoroning poytaxtga aylanib gullab yashnashida mamlakt hukmdori Abdullaxonning (1557-1598) xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, Abdullaxonning harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlarida esa Karmanalik maShhur Shayx (hazrat qutb ul-avliyo) Qosim Shayx Azizonning hissasi ham beqiyosdir. Qosim Shayx hazratlari to'g'risida ma'lumotlar qo'lyozma asarlardan asarlarga ko'chib, bizning davrimizgacha etib keldi. Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi Shoxiy" "Abdullanoma", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir al-axbob", Hazrat Olim Shayx Azizonning "Lamaxot min nafaxot al-quds", Muhammad Tohir Eshon Xorazmiyning "Tazkirat ul-avliyo", "Tazkirat Tohir Eshon", Sayyid Muhammad Nosiriddinning "Tuhfat az-Zoirin" asarlarida uchraydi. "Muhammad Tohir Eshon tazkirasi" Qosim Shayx to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beribgina qolmay, Shayx ma'naviy silsilasi davomchilari, ya'ni xalifalari haqida ham boy ma'lumotlarni beradi. Asar hijriy 1159-1160 melodiy 1764-1747 yillarda yozilgan bo'lib, qo'lyozma nusxalari ayni paytda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti maxsus bo'limida saqlanadi. Asarda Qosim Shayx faoliyatiga keng o'rin berilgan hamda boshqa tarixiy manbalarda uchramaydigan muhim ma'lumotlar bor.

Qosim Shayx Azizon Karmanagiylar, Yassaviya-sultoniyati tariqatining eng maShhur murshidlaridan bo'lgan. Yoshligida Iftixor Shayxning suhbatiga etishgan bu muborak zot Shayx Mavlono Valining muridi bo'lib, ul zot esa o'z navbatida Shayx Xudoydodi Valining xalifalaridan edi. Qosim Shayx Azizon tariqiy iShlari orqali Movarounnahr siyosatida sezilarli ta'sir ko'rsata olgan mutasavvuf bo'lgan. Ul zotgacha Yassaviya tariqatidan Sayid Ota, Naqshbandiya tariqatidan Xoja Ahrori Vali va Maxdumi A'zam va Xoja Hoshim Dahbediylar tasavvufiy faoliyatlarini xalq faravonligi yo'lida siyosatga unumli tadbir etgan edilar. Sohibqironi soniy (keyingi sohibqiron) deb e'tirof etilgan Abdullaxon-II Shayboniy ushbu Qosim Shayx Azizonga irodat qo'lini berib, o'ziga pir hisoblagan. Manbalarning guvohlik berishicha, Qosim Shayx Azizon taxminan XVI asr boshlarida Karmananing Marjonxotin qishlog'ida (hozirgi Navbahor tumani) tug'ilgan. XVI asr ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning butun faoliyati ezgu va xayrli iShlarga qaratilgan. Buxoro hukmdori Abdullaxon II ning hazrat Qosim Shayxga bo'lgan ixlosi yuzasidan 1558 yilda Karmanada xonaqoh barpo etgan.

**Qosim Shayx Azizon yodgorlik majmuasi** – Karmana Shahriining janubiy chekkasida joylashgan me'moriy yodgorlik (XVI-XX asrlar). Qosim Shayx Azizon yassaviya tariqatiga mansub Shayxlardan bo'lgan. Qosim Shayx Azizon yodgorlik majmuasi me'moriy majmua hisoblanib, uchta asosiy imorat: xonaqoh va ikkita hazirani o'z ichiga oladi[1]. Qosim Shayx bu xonaqohda karmanalikalarga tasavvuf ilmidan saboq bergan. Buni xonaqohdagi talabalarning dars qilishi va yotib turishi uchun ko'plab xujralarning mavjudligi tasdiqlab

turibdi. Qosim Shayx masjidida u kishining qabri atrofidagi hujralarda Karmana madrasalari talabalari o'z ustozlaridan saboq olganligidan dalolat beradi. Eng qadimgi imorat - Qosim Shayx Azizon xonaqosi 6 ta gumbaz bilan qoplangan, oldi ochiq peshayvon-galereya tipidagi masjid va maydoni 1400 m<sup>2</sup> dan kattaroq bo'lgan keng hovli bilan iborat. Hovli mahobatli devor bilan o'ralgan, uning kunbotar devorida peshtoq ko'rinishidagi kirish joyi qoldirilgan [7]. Devorlari naqshinkor panjaralar bilan to'silgan, ravoqsimon darichali sidirg'a arkasimon taxmonlar bilan ziynatlangan. Zamondoshlari guvohlik berishicha, mazkur imoratni tasavvuf namoyondasi o'zi barpo etgan. Xonaqoh taxminan 10 yil ichida qurilgan. Uning uch (shimol, janub va g'arb) tomoni kungurador qilib bezatilgan qurilmagan iborat. Xonaqohning eni va bo'yi 25 m o'lchamda bo'lib, ichida jami 6 ta xona, o'rtada katta namozxona, qibla tarafda mehrob o'rnatilgan. Xonaqohning to'rt burchagida taxminan 6x6 m o'lchamdagi o'nburchak hujralar bor. Sharq tomoniga qarab yurilsa, 6x4 m o'lchamdagi chillaxonaga kiriladi. Bino ichida jami 5 ta gumbaz bo'lib, o'rtada erdan balandligi 12 m bo'lgan katta gumbaz va to'rt tomonida erdan balandligi 8 m bo'lgan oddiy gumbazlar qad ko'tarib turibdi [8].

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, Qosim Shayx ko'p hollarda toju taxt uchun kurash olib borayotgan Shayboniy sultonlar va shahzodalar o'rtasida yarashtirib qo'yuvchi sulhparvar muhtaram zot sifatida ish tutgan. Ana shunday taxt uchun kurashlarda Qosim Shayx Shayboniylar sulolasiga mansub sultonlardan biri Jo'ybor xo'jalardan hisoblangan Abdullaxon Soniy Buxoro taxtini egallashiga yordam beradi[2]. Shundan keyin Abdullaxon Qosim Shayxni o'z murshidi (tasavvufdagi ustoz va tarbiyachisi) deb tan oladi. Aynan ko'rsatgan madadi tufayli Abdullaxon minnatdorlik tariqasida o'z murshidiga atab, 1558 yilda xonaqoh barpo ettirgan.[1]. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda XVI asrda Buxoroda yaShab o'tgan ismi noma'lum ustanning chizmalari orasidan Qosim Shayx xonaqohining monumental rejasi topilgan. Buxorodagi Chor Bakr yodgorlik majmuasi, Romitandagi Mullo Mir madrasalari va Dabus qal'adagi Imom Bahra ota maqbarasi qurilishi Qosim Shayx xonaqosiga o'xshash [2]. Ushbu yodgorlik majmuasi Qosim Shayx Azizon vafot etguniga qadar illohiyotshunoslik mavzusidagi suhbatlar va tariqat ahli "jahriya"-baland ovozidagi zikrlari o'tkaziladigan maskan bo'lib xizmat qilgan. 1578 yilda hayotdan ko'z yumgan Qosim Shayx Azizon hazira hovlisi markazida dafn etilgan, oradan bir muncha vaqt o'tganidan so'ng uning qabri ustida katta dahma (9x10.5 m, balandligi 1 m) ko'rinidagi sag'ana o'rnatilgan. Qosim Shayx Azizon hazirasiga taqab bunyod etilgan kun chiqar fasadlari bir xil usulda qurilgan bo'lib, har bir fasad markazida chuqur yoysimon ravoqchalari bo'lgan. Peshtoq qad rostlagan, ularning devorlarida esa, xonaqoh markaziy zaliga kiriladigan eshiklar mavjud. Janubga qarab solingan peshtoq qolgan fasadlar peshtoqlaridan ancha baland, uning yuqori qismida esa ravoqchalar silsilasi - arkatura yasalgan. Peshtoqlarning yon tomonlarida kunjakdagi xonalar-ziyoratchilar uchun mo'ljallangan xujralarga kirish uchun kichik ravoqsimon eshik joylar ochilgan. Ular esa tirsaksimon dahlizlar orqali markaziy zal bilan tutashtirilgan. Tariqat ahli jahriya zikrlari o'tkazib kelgan markaziy zal ichki gumbaz bilan nihoyalavchi o'zaro kesiShadigan arkalar va naqshinkor qalqonsimon bag'allar tizimi bilan qoplangan. Sirdan qaraganda uncha katta bo'lmagan gumbaz g'ayrioddiy baland gardiSh-baraban ustiga qo'ndirilgan, bir mahallar ana Shu gardiSh sayqallangan terrakota, yakrang va naqshinkor parchinlar bilan, gumbazning o'zi esa firuza rangli naqshinkor qadama koshinlar bilan bezatilgan edi. 1911 yili, Buxoroning so'ngi amiri Sayid Muhammad Olimxon (1910-1920) farmoyishiga ko'ra, Qosim Shayx xonaqohining Sharqiy tomonida otasi amir Abdulahad Bahodurxonni dafn etish uchun hazira barpo ettirgan [1].

Qosim Shayx Azizonning muborak va tabarruk nomlari, ma'naviy-islomiy meroslari, silsilai Shariflari haqidagi ma'lumotlar Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Xasanxo'ja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob», Olim Shayx Azizonning «La'maot min nafohot ul quds», Sayyid Muhammad Nosiriddinning «Tuhfat az-zoirin», Sadriddin Salim Buxoriyning «Ikki yuz etmsSh yetti pir», M.Oltinovning «BeShigida avliyolar o'sgan Shahar», S.Inoyatov, H.To'raevlarning «Qosim Shayx Azizon», S.Inoyatovning «Karmana tarix ko'zgisida», A.Hotamov, Sh.Xalilovlarning «Yillar sadosi» kabi o'nlab manba va tarixiy asarlarda uchraydi [5].

Qosim Shayx Azizonning 1578 yilda vabodan 80 yoShida vafot etganligi to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlar mavjud.Xususan, «Abdullanoma»da Qosim Shayx vabodan butun yurtni asrab qoliSh uchun faqat o'zi va muridlarigina Shu kasalikka yo'liqishini Allohdan tilagan va uning tilagi ijobat bo'lganligi voqeasini hamda Qosim Shayxning vafoti tarixi quyidagicha tasvirlangan: «Olam ahlida bunday vabodan jirkanch paydo bo'lgach, tevarak-atrofdan kishilar kelib janoza o'qidilar va uning jasadini o'zi

qurgan gumbazga dafn etdilar. Muqaddas hazrat dunyodan ko'chiSh vaqtida ismi zotni zikr qiliSh bilan maShg'ul bo'ldilar. Shu sababli baxtiyor qalam uning ko'chiSh tarixini «zikru Alloh» (هلارككذ) – abjad hisobida hijriy 986, milodiy 1578 yil) deb yozadi [6].

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib aytiSh mumkinki, Karmanada ham o'rta asrlar davri tarixi va ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan ko'plab tasavvuf allomalari yashab faoliyat yuritishgan. Xususan, yassaviya tariqati sir-asrorlari va tasavvuf tarixiga bag'ishlangan asarlarda bir qancha Karmanagiylarning, Qosim Shayx va u kishining avlodlari nomlari tilga olinib, ularning bu erdagi faoliyatlariga oid muhim ma'lumotlar keltiriladi. Bu esa bugungi kunlarimizda ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan qadimiy Karmana va uning atroflari bilan bog'liq aziz avliyolar va muqaddas qadamjolar to'g'risidagi afsona va rivoyatlarning tagida ayni haqiqat borligidan dalolat beradi. Bugungi kunda esa ushbu allomalar hayot-faoliyatlari va ularning ma'naviy meroslarini o'rganikh, tahlil qilish O'zbekiston tarixi fanidagi muhim masalalardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуҳоликoв Ф. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Навoий. “Uzbekistan Today”. Т.: 2015. Б-60-61 Тўраев Х, Хафиз-и Таниш. Шараф-нама. Ч.1,С134; Ч.2, С82, 237-238.
2. Некрасова Е., Тураев Х. Касим-шайх Азизан Карминаги//Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь, выпуск 4.М.,2003 С.41-44.
3. Рахмонов О. Авлодлар манзили (Кармана тарихидан лавҳалар). “Навоий туман босмахонаси”. Кармана.1996. Б-6-7
4. Ҳотамов А, Бекниёзов Н Кармана-Қадимий диёр. “Ўзбекистон”. Т.: 2007. Б-75-76
5. Ҳофиз Таниш Бухорий.Абдулланома.Биринчи китоб.-Тошкент:Шарк,1999.
6. Қўйи Зарафшон воҳаси (илмий тўлами). II китоб. Абдумўминов О. Бешигида авлиёлар ўсган ватан. “Фан”. Т.: 2007. Б-131-132
7. Муҳаммад Олим Шайх Азизон. Ламаҳот.яссавия пирлари мақомоти/форсчадан .Каттаев.,А.Нарзуллаевлар таржимаси.-Самарқанд: 2007.
8. Раҳим Қодир Қосим Шайх ёдгорлик мажмуаси. “Vorispriint”. Т.:2010. Б-5-6
9. Қандахаров А. Навоий вилоятидаги Нақшбандия ва Яссавия тариқатларига оид қадамжолар.-Тошкент: Диншунослик.The Light of Islam, 4-сон 2019 йил.
10. Тўраев Х. Касым Шейх в политический жизни Мавераннахра середины XVI в. – Тезисы докладов и сообщений научной конференции «Бартольдoвские чтения-93» Москва, 1993, с. 41-42.
11. Муҳаммад Тохир Эшон, “Тазкират ул-авлиё”. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёмаси, инв. № 7017.
12. Садриддин Салим Бухорий, Самад Азимов ҲАЗРАТ МАВЛОНО ОРИФ ДЕГАРОНИЙ .Илмий-маърифий нашр. Бухоро шаҳар,И Мўминов кўчаси 27-уй.”Бухоро”нашриёти.Нашр сони 19.Адади 2000 нусхада 3.6



UDK: 1400

*Xulkar XOLIKULOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti dotsenti*  
*E-mail: Xalikulova81@mail.ru*

*Prof.v.b, t.f.d. K.D. Soipova taqrizi asosida*

### IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING TUTGAN O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni yoritilgan. Maqolada aniq misollar asosida nodavlat va davlat tashkilotlari tomonidan imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoya qilish asoslari yoritilgan. Respublikamizda nogironlar jamiyatlari, ularning viloyatlardagi filiallari tahlil qilindi. Bundan tashqari nogironlik turlariga qarab, viloyatlarda imkoniyati cheklangan kishilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga o'zaro yordam va xizmat ko'rsatish, shaxsiy rivojlanish va fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashish uchun sharoitlarni yaratib berish maqsadida tashkil topgan turli markazlar faoliyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, ixtisoslashtirilgan maktab internatlar, imkoniyati cheklangan bolalar, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, kar va zaif eshituvchi, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.

### РОЛЬ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ИНТЕГРАЦИИ ИНВАЛИДОВ К ОБЩЕСТВУ

Аннотация

Данная статья посвящается освещению деятельности обществ инвалидов. В статье на конкретных примерах рассмотрены проблемы организации социальной защиты которые проводятся государственными и негосударственными организациями. В статье проанализированы общества инвалидов и их региональные отделения республики. Кроме того было изучено деятельность различных центров, созданных в целях защиты прав и интересов людей с ограниченными возможностями.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, специализированные школы-интернаты, дети с ограниченными возможностями, незрячие, слабослышащие, глухие и слабослышащие, умственно отсталые дети.

### THE ROLE OF NON-GOVERNMENT NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN ADAPTATION OF DISABLED PERSONS TO THE SOCIETY

Annotation

This article is devoted to the problem of activity of society of disabilities. In this article on precise example based connected with the problem of organization process in the Republik wich organized government and ungerverment organization. The article analyzes the societies of the disabled and their regional branches of the republic. In addition, the activities of various centers created to protect the rights and interests of people with disabilities were studied.

**Key words:** Inclizive education, specialized boarding scools, children with disabilities, blind, visually impaired, deaf, hard of hearing, retarded.

**Kirish.** Nogironlarning ijtimoiy ko'nikuvi, ularning moddiy ahvolini yaxshilash. Imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat hayoti va rivojlanishida faol ishtirok etishini kengaytirish inson huquqini himoya qilish sohasidagi aktual muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj nogironlarga hayotda keng imkoniyatlar va sharoitlar yaratish masalasiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya", "Nogironlar borasida Butunjahon harakat dasturi", "Nogironlarni rivojlanishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun standart qoidalari", "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" kabi bir qator muhim xalqaro xujjatlarni hisobga olgan holda, respublikamizda nogironlik va nogironlar reabilitatsiyasiga oid ko'plab me'yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilinib amaliyotga kiritildi. [1]

**Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarda masalaning ijtimoiy jihatlariga ko'proq ahamiyat qaratildi. Bu davrda tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquqshunoslik,

ijtimoiy sohalarida imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Xususan, 2000-yillarga kelib nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim berishning zamonaviy usullarini qo'llash va ularni sog'lom bolalarga ijtimoiy moslashtirishga e'tibor berila boshladi. M.A. Usmanovning tadqiqotida asosiy e'tibor keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning huquqiy aspektlariga qaratilgan. Unda sobiq sovet davlati hamda mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy himoya siyosatiga oid ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, keyingi davrlarda yuz bergan o'zgarishlar qamrab olinmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda jahonda nogironlar masalasiga mutlaqo yangicha yondashuv va qarashlar asosida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, inklyuziv ta'lim masalasi xorijiy davlatlarda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini sobiq Sovet davridan farqli ravishda turli fanlar yo'nalishi doirasida olib borish jadallashdi, natijada hozirda faqat pedagoglar emas, balki Rossiya va Yevropa sotsiologlari Malofyev N.N, Yarskaya-Smirnova, Gudonislar ham bu masalaga jiddiy qiziqish bilan qaramoqdalar. Ular

tadqiqot ishlaridanklyuziv ta'limni nogiron bolalarni jamiyatga moslashtiruvchi eng muhim faktor sifatida ko'rsatishga harakat qilganlar.

**Tadqiqot natijalari.** Respublikamizda nogironlarning qonun imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratildi va respublikamizda nogironlar jamiyatlari, ularning viloyatlardagi filiallari tashkil qilindi. Bundan tashqari nogironlik turlariga qarab, viloyatlarda imkoniyati cheklanagan kishilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga o'zaro yordam va xizmat ko'rsatish, shaxsiy rivojlanish va fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashish uchun sharoitlarni yaratib berish maqsadida turli markazlar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston karlar jamiyati 1929 yil 21 mayda O'zbekiston SSR xalq Komissarlari Kengashi qarori bilan tashkil etilgan. O'zbekiston karlar jamiyatining asosiy maqsadi gapirish va eshitish nuqsonlari bor nogironlarni birlashtirish, himoya qilish va fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashish, ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi va zamonaviy jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashdan iborat[2].

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston karlar jamiyati tomonidan kar va soqov nogironlar uchun 19 ta korxonalar, 2 ta respublika sog'lomlashtirish reabilitatsion markazlari, sport majmuasi, stadion, Jizzax viloyatidagi dam olish uchun "Zilola" pansionati qurildi. Hozirgi kunda karlar jamiyati tomonidan O'zbekiston karlar jamiyatining korxonalarida va tashkilotlarida ish bilan ta'minlash, ijtimoiy maishiy xizmat ko'rsatish, O'zbekiston karlar jamiyati respublika saroyining turli xil sport seksiyalarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mustaqillik yillarida ayniqsa karlar va zaif eshituvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida ularning imkoniyatlarini doirasidagi ish o'rinlari, ularning jamiyatga moslashuviga yordam berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi kunda ularning 300 nafardan ortig'i turli kasanachilik ishlari va xususiy tadbikorlik bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratib berildi[3].

Kar soqovlardan tashqari ko'rish bo'yicha 1 va 11 guruh nogironlarining ixtiyoriy a'zolariga asoslangan O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti faol yuritmoqda. U 1932 yilda tashkil topgan bo'lib, 1954 yilgacha bu tashkilot o'z faoliyatini davlat himoyasida amalga oshirgan. 50 yildan ortiq bu tashkilot nodavlat notijorat tashkilot sifatida o'zini o'zi moliyalashtirish tamoyili asosida amal qilib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yangi qonunchilik tizimi asosida ko'zi ojizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya qilish, ijtimoiy integratsiyalash, teng huquqliligini hamda teng imkoniyatlarni ta'minlashga

ko'maklashish uchun jamoat birlashmasi tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan[4]. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-641-son, 15.10.2020 y.), O'zbekiston Respublikasida "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi qonunlari, shuningdek, O'zbekiston respublikasining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa qonun xujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida, shuningdek, ko'zi ojizlar jamiyati ustaviga muvofiq ish yuritadi [5].

Assotsiatsiya bugungi kunda "Madadi Sino" akademiyasi, O'zbekiston bolalar jamg'armasi, respublikaning boshqa jamoatchilik markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda, Xalqaro faoliyatda-"Soyuz Chernobil" xalqaro tashkiloti assotsiatsiyasiga 1992 yildan beri a'zo. Bugungi kunda chernobilchilar bolalarini o'quv markazida xalq, manzarali amaliy va zamonaviy texnik va iqtisodiy yo'nalishlarning kamida 10 mutaxassisliklari bo'yicha o'rgatish. An'anaviy bo'lmagan tabobat uslublari bilan davolash, kontaktli va kontaktsiz massaj xizmatlarini taqdim etib kelmoqda[6].

Tabiiyki, berilayotgan e'tibor, ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik natijasida O'zbekiston Nogironlar jamiyati mamlakatimiz ijtimoiy hayotining muhim bir bo'g'ini sifatida his etmoqda. O'zbekiston nogironlar jamiyati jismoniy imkoniyati cheklangan kishilarni faol hayotiy pozitsiyani egallashlari uchun uzoqni ko'zlagan holda turli loyihalarga jalb etmoqda. Ayni paytda nogironlarga jismoniy imkoniyatlari doirasida kasb o'rgatish va ularga ish o'rinlari yaratish ishlari tashkil qilinmoqda[7]. Masalan, Vazirlar mahkamasining 1998 yil 1 dekabrda 504 sonli "Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash to'g'risida"gi qaroriga asosan nogironlar jamiyati Andijon viloyati bo'limi qoshida 1999-2002 yillarda "Direksiya" avto-servis va kosibchilik ustaxonalari tashkil qilingan bo'lib, unda mana o'n yildirki 16 kishiga muqim ish joyi yaratildi. Nogironlar jamiyatining tuman bo'limlarida jami 76 ta ish o'rni yaratilib jismoniy imkoniyati cheklanganlar ish bilan ta'minlandi[8]. Surxondaryo viloyati nogironlar jamiyatining joylardagi bo'limlari tomonidan 96 ta ish o'rinlari yaratildi[9].

**Xulosa.** O'zbekiston Nogironlar jamiyati dunyo tan olgan O'zbek Milliy modeli deb nomlangan islohotlarning kuchli ijtimoiy himoya tamoyili doirasida nogironlarga teng imkoniyatlarni yaratish, ijtimoiy hayotda faol qatnashishlari uchun hamda ijtimoiy-maishiy masalalarni hal qilishda ko'maklashish, ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi tizimli faoliyatini izchil davom ettiraveradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013, 18-son, 233-modda.
2. «Bola huquqlari kafolatlati» – Toshkent: OOO «Kvinta Print», 2008. –B.5.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997, 9-son, 285-modda; 2013 yil, 41-son, 54-modda. –B.8
4. O'zbekiston nogironlar jamiyati joriy arxiv materiallari. O'zbekiston nogironlar jamiyatining QR, viloyatlar va Toshkent shahri bo'limlarida nogironlar soni haqida ma'lumot.– Toshkent, 1.01.2017
5. Abduxalilov. A. Analiticheskiy dokument, posvyashchenny issledovaniyu problemam lits s narusheniyem zreniya. – Tashkent, 15.12.2014 Statya:
6. Unisef.Uz country profile eng 29 July final proofed. Uzbekistan1. Definitions and stipulated rights of children with disabilities in Uzbekistan.-Tashkent, 2012. P.3.
7. O'zbekiston nogironlar jamiyati joriy arxiv materiallari. Isakov.O. Informatsiya, otnosyayushiesya k chasti 3 Mejdunarodnogo pakta ob ekonomicheskix, sotsialnyx i kulturnyx pravax.–Tashkent, 2014.